

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
A.QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT

PEDAGOGIKA INSTITUTI
MISIQA TA'LIMI NAZARIYASI VA USLUBIYATI KAFEDRASI

“Himoya qilishga ruxsat beraman”

Ped - psixologiya fakul'teti dekani

_____prof. R.Abdurasulov

“ _____ ” _____ 2013

**“Maktabdan tashqari o'tkaziladigan ommaviy- musiqiy tadbirlarning
bolalar badiiy- estetik tarbiyasida tutgan o'rni.” mavzusida bajarilgan**

BITIRUV MALAKAVIY

ISHI

Bajaruvchi:

Norbekova M

Ilmiy raxbar:

Haydarova N

Ishni himoyaga tavsiya etaman:

Haydarova N

**BMI Musiqa ta'limi nazariyasi va uslubiyati
kafedrasi yig'ilishining qarori bilan (Qaror №
) himoyaga tavsiya etilgan**

Kafedra mudiri :

X.Omonov

Jizzax – 2014

Mavzu: Maktabdan tashqari o`tkaziladigan ommaviy- musiqiy tadbirlarning bolalar badiiy- estetik tarbiyasida tutgan o`rni.

REJA:

Kirish.

I.Bob.Yosh avlodni milliy qadriyatlarimiz ruhidagi ommaviy- musiqiy tadbirlar orqali tarbiyalashning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni.

1.1.Barkamol avlod tarbiyasi mustaqil vatanimiz ta'lim tizimining bosh vazifasidir.

1.2.Yosh avlodni badiiy-estetik ruhda tarbiyalash va bu yo'lda uchrayotgan muammolar.

II Bob. O`quvchilarni milliy musiqa merosimiz tarixiga oid ma'lumotlar bilan tanishtirishning o`ziga hos ahamiyati.

2.1. Bolalar bo'sh vaqtlari va ularni mazmunli tashkil etishning tarbiyaviy ahamiyati.

2.2. Maktabdan tashqari musiqa mashg'ulotlari bolalar ta'limi va tarbiyasida tutgan o`rni va tajriba sinov ishlari.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

**A.Oodiriv nomli JDPI musiqiy ta'lim yo'nalishi bitiruvchi kurs talabasi
Norbekova Mushtariyning “Maktabdan tashqari o`tkaziladigan ommaviy-
musiqiy tadbirlarning bolalar badiiy- estetik tarbiyasida tutgan o`rni”
mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga ilmiy rahbar**

XULOSASI

Ma'lumki xalqning ruhi, dunyoqarashi va turmush tarzini ifoda etadigan milliy ma'naviyatga munosabat, uni zamon talablari asosida rivojlantirish, yosh avlod dunyoqarashi va tafakkurini zamon taraqqiyotiga mos xolda o'zgartirish masalasi har tomonlama chuqur va puxta o'ylab bajarilishini talab etadi. Bu borada avvalo, milliy ma'naviyat, milliy madaniyat, milliy mafkura, milliy me'ros tushunchalarini yosh avlodga to'g'ri tushuntirish, ularni ushbu tushunchalar mohiyatini va mazmunini chuqur anglab etish va o'zlarining hayotlari davomida bu tushunchalarga ogishmay amal qilish hamda huddi shu tushunchalarni o'zlaridan keyingi nasllarga etkazish insoniy fazilat ekanligini anglashga o'rgatish lozim.

Mavzu aynan milliy musiqiy merosimiz, milliy qadryatlarimiz hamda millatimiz musiqa madaniyati tarixi to'grisidagi bilim va tushunchalarni maktabdan tashqari tadbirlar orqali bilim va tushunchalarni yosh avlod ongiga singdirishning zaruriyati ekanligi, shu orqali ularning milliy-musiqiy dunyoqarashlarini kengaytirish va har tomonlama etuk komil insonlar bo'lib etishishlari uchun zamin yaratish mumkin ekanligini ilmiy asosda ochib berishni talab etadi.

Bizga ma'lumki, bitiruv malakaviy ish talabani mustaqil ilmiy ishi bo'lib, ko'proq talabani o'z fikr-mulohazalarini rejada ko'rsatgan bob va paragraflar mazmuniga ko'ra to'g'ri va to'liq anglatishini, tarixiy manba va adabiyotlardan esa ushbu bildirilgan fikrlarni isbotlash va asoslash uchungina foydalanish kerakligini bildiradi. Bundan tashqari talaba bildirayotgan o'z fikr va mulohazalarni tajriba ob'ektida olib borilgan tajriba -sinov ishlari ko'rsatilgan natijalar va ularning ilmiy tahlili, chiqarilgan xulosasi bilan ham asoslab berishi talab qilinadi.

Talabani ilmiy ishga yo'naltirish uchun mana shu bo'yicha kerakli bo'lgan adabiyotlar ro'yxati tuzildi. Bitiruv ishining kirish qismi, har bir bobi va paragraflari yozib bo'lingach tahlil qilindi va xato kamchiliklari ko'rsatilib o'z vaqtida to'grilandi.

Bitiruv malakaviy ish kirish qismi, ikki bob to'rt paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topdi.

Ushbu bitiruv ishi yozilishi mazmuni, ilmiy masalalarni ochib berish, ko'rsatilgan muammolari va ularni hal qilishda bildirilgan fikrlari, olib borgan tadqiqoti va erishgan natijalarining yoritilish darajasi bilan oliy ta'lim bakalavr darajasi talablariga to'la mos keladi deb o'ylayman. Talabanning kelajakdagi ilmiy ishi borasida faoliyatini yana davom ettirishi, ushbu mavzu mohiyati bo'yicha izlanishlarini yana davom ettirishiga umid qilaman.

Bitiruv ishini namunali tarzda yoritilgan ilmiy ishlar qatorida deb baholayman va uni talabanning muvaffaqiyatli himoya qilishiga umid qilaman.

Ilmiy rahbar: A.Qodiriy nomli JDPI

Kat. o'qituvchi

Haydarova N

**A.Qodiriy nomli JDPI musiqiy ta'lim yo'nalishi bitiruvchi kurs talabasi
Norbekova Mushtariyning “Maktabdan tashqari o`tkaziladigan ommoviy-
musiqiy tadbirlarning bolalar badiiy- estetik tarbiyasida tutgan o`rni”
mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga**

TAQRIZ

Mustaqilligimiz sharofati bilan xalqimiz o'zligini taniy boshladi, ya'ni biz kimmiz, kimning farzandlarimiz, o'tgan ajdodlarimiz kim bo'lgan, jahon hamjamiyatidagi bizning o'rnimiz qaerda, kabi savollarga javob topish uchun o'z tariximizni chuqur o'rganishga kirishdik. Mana shu nuqtai nazardan qaraganda bitiruv ishi mavzusi muhim va dolzarb mavzulardan biridir.

Bitiruv ishi bilan tanishish jarayonida mavzu to'g'ri rejalashtirilganligiga va uning mazmuni ham reja bo'yicha yoritilganligining shohidi bo'ldim.

Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, to'rt paragraf, xulosa foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan tashkil topgan.

Kirish qismida mavzuning maqsadi, dolzarbligi, predmeti, ob'kti, metodologik asoslari va tarbiyaviy ahamiyati aks ettirilgan.

Birinchi bob ikki paragrafdan iborat bo'lib, asosan musiqa madaniyatimiz tarixi, uzoq milliy tariximiz davomida uning rivojlanishiga hissa qo'shgan musiqashunos olimlar, mashhur hofiz va sozandalar, milliy cholg'u sozlarimiz paydo bo'lishi va takomillashuvi, bo'lib o'tgan tarixiy boqealar va hozirgi vaqtda respublikamiz miqyosida va umumta'lim maktablarida olib borayotgan to'garak ishlarining bola shaxsi rivojlanishidagi ahamiyati aks ettirilgan. Shuningdek bu bobda jamiyatimiz taraqqiyoti, uni yanada rivojlantirish uchun yosh avlod ongiga estetik tarbiya to'grisidagi bilim va tushunchalarni singdirishning zaruriyati to'grisidagi fikr-mulohazalar ham aks ettirilgan.

Ikkinchi bob ham ikki paragrafdan iborat bo'lib, ta'lim tizimi, xususan umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarining olib borilishi darsdagi musiqiy faoliyat turlari va maktabdan tashqari olib boriladigan tadbirlar o'quvchilarda qanday taassurot qoldirishi, uning beradigan samaralari to'grisidagi fikr va mulohazalar, shuningdek, milliy musiqiy qadriyatlarimiz, musiqa

madaniyatimiz tarixi to'grisidagi tarixiy ma'lumotlarni o'quvchilar ongiga singdirish uchun yangi pedagogik texnologiyalar, axborot elektron tarmoqlari, kompeyuter texnikasi yangiliklaridan foydalanish yo'l- yo'riqlari , ularning o'quvchilar ma'naviy dunyoqarashlari, xususan musiqiy dunyoqarashlari shakllanishidagi beradigan samaralari to'grisidagi fikr mulohazalar, olib borilgan tajriba sinov ishlari va uning natijalari yoritilgan.

Bitiruv malakaviy ish so'ngida xulosalangan, ishga ilova sifatida bir necha qo'shiqlar kiritilgan va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati berilgan.

Bitiruv malakaviy ish mazmunida ko'plab tarixiy ma'lumotlar va musiqa madaniyati darslari samarasini oshirish, o'quvchilar musiqiy dunyoqarashlarini kengaytirish borasida qimmatli fikr-mulohazalar bildirilgan va savodli tarzda yozilgan ishni himoyaga tavsiya etaman.

JDPI katta o'qituvchisi:

H.Nazarov.

**A.Qodiriy nomli JDPI musiqiy ta'lim yo'nalishi bitiruvchi kurs talabasi
Norbekova Mushtariyning “Maktabdan tashqari o'tkaziladigan ommaviy-
musiqiy tadbirlarning bolalar badiiy- estetik tarbiyasida tutgan o'rni”
mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga**

TAQRIZ

Bitiruvchi Norbekova Mushtariyning ushbu bitiruv malakaviy ishi mazmuni bilan tanishib chiqdim. Ushbu mavzu hozirgi zamon musiqa madaniyati darslari oldida turgan dolzarb vazifalarni qamrab olgan va ilmiy asosda yoritilgan.

Darhaqiqat, prezidentimizning "Tarixni bilmagan xalqning kelajagi yo'q" degan so'zlari nuqtai-nazaridan qaraganda mavzuning ilmiy asosda har tomonlama yoritilgani o'ylanmanki, u bilan tanishuvchilarga kerakli tushuncha va ma'lumotlar beradi.

Bitiruv ishi kirish, ikki bob, to'rt paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Kirish qismida shu mavzu maqsadi, dolzarbligi, ilmiy asoslari, tarbiyaviyligi, predmeti, ob'ekti, metodologik asosi, ahamiyati yoritilgan.

Birinchi bob ikki paragrafdan iborat bo'lib, asosan o'zbek milliy musiqa merosi, uni o'rganuvchi tarixiy dalillar, uni rivojlantirishda hissa qo'shgan tarixiy shaxslar hamda rivojlangan demokratik-huquqiy jamiyat qurishimizda tarixiy faktlarni, dalillarni yosh avlod ongiga yetkazishning zaruriyati to'g'risidagi fikr-mulohazalar aks etgan.

Ikkinchi bob ham ikki paragrafdan iborat bo'lib, asosan umumta'lim maktablari, ularda o'qitiladigan musiqa madaniyati darslari, darsdan tashqari to'g'arak mashg'ulotlari, maktabda va maktabdan tashqari o'tkaziladigan ommaviy-musiqiy tadbirlarda musiqa madaniyatimiz tarixiga oid dalillar va ma'lumotlardan foydalanish, shuningdek, musiqamadaniyati darslaridagi musiqiy faoliyat turlariga ushbu tarixiy ma'lumotlarni qanday tadqiq qilish yo'l-yo'riqlari, uning beradigan samarasi hamda uning samarasini yanada oshirish uchun o'qitishning yangi pedagogik texnologiyalari, axborot-kompeyuter tarmoqlaridan qanday foydalanish to'g'risidagi qimmatli fikr-mulohazalar aks ettirilgan.

Bitiruv ishi so'ngi xulosalangan, ilova kiritilgan va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati ko'rsatilgan.

Ushbu bitiruv ishi namunali yozilgan ishlar jumlasiga kiradi va uni himoya qilishga tavsiya etaman.

Jizzax san'at kolleji o'qituvchisi:

A.T. Yakubov.

Kirish:

Istiqlol sharofati bilan jamiyatimizning ma'naviy qiyofasida katta-katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Jumladan milliy madaniyatimiz, ma'naviyatimiz boy madaniy me'rosimiz tarixiga qiziqish uni har tomonlama o'rganishga katta ahamiyat berilmoqda. Bu jarayon ma'naviyatning turli sohalarida o'zining ifodasini topmoqda. Nohaq unutilgan bobolarimiz me'rosini qayta o'rganish ulug' ajdodlarimizning tavallud kunlarini nishonlanishi bunga aniq misoldir. Madaniyatimizning buyuk homiysi Amir Temur va ulug' allomalarimiz Ma'naviyat- nisbiy tushuna bo'lib inson qadr qimmat qadryati kabi tushunchalari bilan uzviy bog'liqdir.

Prezidentimiz ma'naviyatga shunday fikr bildirganlar "Biz halqimizni dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart" degan so'zlaridan ilhomlanib ularning baxtli yashashlari uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz bu borada ma'naviy tarbiya masalasi hech shubhasiz beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda mustaqil rivojlanish yo'liga o'tilishi bilan hayotimizning barcha sohaları qatori ta'lim sohasida ham tub o'zgarishlar amalgam oshirildi.

Barcha fanlarda bo'lgani sari musiqiy ta'limni ham milliy negizida yangitdan shakllantirish asosiy vazifa qili qo'yildi. Shunga ko'ra musiqa bo'yicha yangi o'quv dasturlari, darsliklar yaratildi va bo'limlarni takomillashtirish bo'yicha ishlar hozirgi kunda ham qizg'in davom etmoqda.

Albatta, yosh avlodni milliy ma'naviy ruhda tarbiyalash maqsadida ishlab chiqilgan dasturlar va darsliklar milliy musiqiy ta'limning mazmuni va mohiyatini belgilab berish bilan ahamiyatlidir.

Ma'lumki musiqa darslari boshqa fanlardan farqli o'laroq, uch asosiy va boshlang'ich sinflarda yana ikki qo'shimcha faoliyatlar asosida tashkil etiladi. Bulardan uchtasi eng muhim va yetakchi faoliyatlar bo'lib, bular musiqa tinglash, musiqa savodi va jamoaviy ijrochilik ya'ni xor bo'lib qo'shiq kuylash faoliyatlardir.

Mana shu uch faoliyat mazmunida butun musiqiy ta'limning maqsad va vazifalari mujassamlashadi. Shu bois ham darsning to'laqonli va maqsadga muvofiq bo'lishi, mana shu uch faoliyatni yuqori saviyada tashkil etishga bog'liqdir.

Hozirda o'sib kelayotgan yosh avlodning hech kimdan kam bo'lmagan zamonda bilim olish uchun barcha sharoitlarni yaratish, bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni to'garak mashg'ulotlariga keng jalb qilish Prezidentimiz Islom Karimov rahnomaligida oshirilayotgan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 28 fevraldagi "Maktabdan tashqari ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora –tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosi doirasida Respublikamizda "Istiqlol g'unchalari", "Kamalak yulduzlari", "Yangi avlod", "Muhiddin qori Yoqubov nomli", "Kelajak ovozi"nomli turli ko'rik tanlovlar tashkil etilganki bu ko'rik tanlovlar barcha yoshlarning turli yo'nalishlarda o'zlarining mahoratlarini ko'rsatish bo'rasida katta zamin yaratib bermoqda.

Kuzatuvlarimizda biz bunga amin bo'ldik.

Mavzuning dolzarbligi. Bizga malumki, O'zbekiston xalqi mustaqillikka erishgandan so'ng o'z istiqbol va taraqqiyot yo'lini belgilab oldi. Bu yo'l ochiq, erkin bozor iqtisodiyotiga asoslangan odil jamiyat, kuchli demokratik huquqiy davlat qurish yo'lidan boshqichma bosqich borishdir. Buning uchun xalqning dunyoqarashini tubdan o'zgartirish, turg'unlik davri aqidalaridan, tarbiya uslubidan va turmush tarzidan vos kechish va yangi jamiyat fuqarolarini tarbiyalab yetishtirish zarur. Mavzuga chuqurroq nazar tashlash va uning mazmunini teran anglash shu mavzu orqali barkamol shahsni tarbiyalash masalasiga ma'suliyat bilan yondashish yoshlar bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishni har tomonlama tarbiyaviy jihatidan tahlil qilish, kerakli uslubiy tavsiyalar berish mavzuning dolzarbligidir. Har bir jamiyat taraqqiyotini avvalo shu jamiyat fuqarolarining manaviy darajasi belgilaydi. Ma'naviy nisbiy tushuncha bo'lib inson qadri-qimmat, qadriyati kabi tushunchalar bilan uzviy bog'liqdir.

Shuning uchun xam ma'naviyatni sog'lomlashtirish ot'mish qadriyatlarimizni tiklash, unutilgan an'ana va marosimlarni tiklash ishlariga katta ahamiyat berilmoqda. "Ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta'lim va maorifni yuksaltirish milliy uyg'onosh g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib qoladi".

O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishini, jamiyatning manaviy yangilanishini, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishni, jahon hamjamiyatiga qo'shilishni ta'minlaydigan demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyatini qurmoqda. Inson, uning har tomonlama uyg'un kamol topishi va faravonligi shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va tasirchan mehanizmini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy hulq atvorining andozalarini o'zgartirish respublikada amalgam oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvshi kuchidir.

Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning o'ziga xos yo'lini tanlashi kadrlar tayyorlash tuzilmasi va mazmuni qayta tashkil etishni zarur qilib qo'ydi va qator chora tadbirlar ko'rishni "Ta'lim to'g'risida"gi qonunni joriy etish, yangi o'quv rejalari, darsliklari dasturlari joriy etishni, zamonaviy didaktik ta'minotni ishlab chiqishni, o'quv yurtlarini attestatsiyada o'tkazishni va akkreditatsiyalashni, yangi tipdagi ta'lim muassasalarini tahkil etishni taqozo etdi.

"Men uchun Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz ushun, yo hayot yo momot, yo najot yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir" degan fikri XX asr boshida millatimiz uchun qanchalik muhim va dolzarb bo'lsa, hozirgi kunda biz uchun ham shunchalik, balki undan ham ko'ra kop'roq muhim va dolzarbdir. Chunki

ta'lim ong mahsuli, lekin ayni vaqtda uning darajasi va uning rivojini xam belgilaydigan omildir.

Binobarin ta'lim tarbiya tuzimini o'zgartirmasdan turib ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkurni o'zgartizmasdan turib esa, biz ko'zlagan oliy maqsad ozod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi."

Bugungi kunda oldimizga qo'ygan maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, rejalarimizning samarasi avvalambor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liqligini barchamiz anglab yetmoqdamiz.

Masalaga ushbu nuqtai nazardan yondashish mavzumizning dolzarbligi masalasini ham o'z-o'zidan ravshanlashtiradi. Zero, musiqiy ta'lim va tarbiyadan ko'zlangan maqsad yosh avlod ongini, tafakkurini tabiyat va jamiyatda bo'layotgan o'zgarishlarga to'g'ri insoniy munosabat shakllantirish bo'lib, bularning barchasi biz qurmoqchi bo'lgan demokratik huquqiy va ochiq fuqarolik jamiyati fuqarosini, ya'ni har tominlama yetuk barkamol avlodni tarbiyalab yetishtirishimizga xizmat qiluvchi omillar xisoblanadi.

Shu bilan birga xammamiz yana bir haqiqatni anglab yetmoqdamizkim, faqatgina chinakam marifatli inson inson qadrini, milliy qadriyatlarini bir so'z bilan aytganda o'zligini anglash uchun fidoyilik bilan kurashishi mumkin. Sir emaski har qaysi davlat nafaqat yer osti va yer usti tabiiy boyliklari bilan, harbiy qadriyati va ishlab chiqarish salohiyati bilan, balki birinchi navbatda o'zining yuksak madaniyati va manaviyati bilan kuchlidir.

Shu bois mamlakatimizning istiqboli yo'lidagi birinchi qadamalridanoq buyuk manaviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga chiqarish maqsadida katta ahamiyat berib kelinmoqda.

Ammo holisona baho berganda shuni tan olishimiz kerakki o'tgan davr mobaynida amalgam oshirgan tadbirlarimiz bugun hayot talab qilayotgan

natijalarni berayotgani yo'q. avvalo shuni takidlashimiz kerakki, biz eski sho'rolar davridan qolgan talim-tarbiya tizimiga xoz mafkuraviy qarashlardan hali beri to'liq qutulganimiz yo'q.

Xalqimizda "Intilganga tole yor" degan naql bejiz aytilmagan. Yoshlar ilmi, tadbirkor bo'lsa-yu shu hislatlar yoniga mehnatsevarlik va iroda qo'shilsa kozlangan natijalarga erishish mumkin. Zero yurtimizning kelajakda bundan xam obod bo'lishi jahonning taraqqiy etgan mamlakatlari safidan joy olishi, dunyo hamjamiyatida nufuzining oshishi manashunday ijodkor yoshlarning ko'payishiga bog'liqdir.

Har bir qilingan xayrli ish hatto u juda mayda bo'lsa xam e'tibordan chetda qolmasdan vaqtida inobatga olinsa ijodkorlar safi kengayaveradi.

Mavzuning tarbiyaviyligi. Har bir millat haqiqiy millat bo'lib shakllanishi uchun uning har bir azosi shu millat ravnaqi uchun fidoyi bo'lishini har bir udum va ananalarga to'la rioya qilishi lozim bo'ladi. O'z millati manfaatini ko'zlagan har bir millatdan, yurtdosh milliylikning yuqorida ko'rsatilgan har bir shartlariga og'ishmay rioya qilishi, kerak bo'lsa jonini fido qilishi lozim, aks holda bunday millatning kelaajgi hafv ostida bo'ladi.

Xo'sh buning uchun nima qilmoq kerak?

Sir emaski har qaysi davlat o'z mustahkamligini saqlash va yanada mustahkamlash uchun ishni yoshlar tarbiyasiga to'g'ri yondashishdan boshlashi lozim. Buning uchun tarbiyaning bosh prinsipini bolalikdan qo'shib olib bormoq va buning uchun barcha imkoniyatlardan unumli foydalanmoq kerak.

Xamonan gap musiqa san'ati va milliylik to'g'risida shuningdek bolalar bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish to'g'risida ketar ekan, yosh avlodga musiqiy tarbiyani singdirish uchun ishni onalar allasidan ya'ni bola tug'ilganidan boshlamoq kerak. Hatto ulug' allomalar fikriga ko'ra tarbiya ona qornidagi homila davridan boshlanishi kerak. Ho'sh maktabdan tashqari o'tkazilayotgan tadbirlarning bolalar bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazishdagi o'rni qanday? Qaysi yoshdan boshlab bolalar bunday tadbirlarda qatnashishni boshlamog'i kerak?

Bizningcha bu borada qiladigan ishlarimiz ham juda ko'p. Avvalambor O'zbekistonda joriy etilgan milliy ruhga yo'g'rilgan korik tanlovlar haqida ko'proq tushuncha berish kerak. Qolaversa milliy qo'shiqlarimiz, kuylarimiz va maqom san'atimizning yoshlarga tinglatish va ular to'g'risida konsertlar va suhbatlar tashkil qilish lozim.

Milliy musiqa san'atimiz, cholg'u asboblari, milly qo'shiqlarimiz durdonalari bilan tanishtirishni bolaning maktabgacha tizim vaqtidan boshlamoq lozim.

Agar bolalar bog'chalari davridan, maktab davridan bolalar cholg'u asboblarning barcha turlari haqida ma'lumotga ega bo'lib va unda mutaxassis kadrlar mehnat qilsa bog'chadagi musiqa darslari to'g'ri yo'lga qo'yilsa bu masalalar albatta o'z yechimini topadi. Yuqorida ko'rsatilgan vazifalarni xal etish, ta'limni to'g'ri yo'lga solish, yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash uchun eng avvalo yurtida tinchlik, mehnat ko'tarinkiligi mavjud bo'lishi lozim."Millat bor ekan, milliy davlat bor ekan uning mustaqilligi va erkinligiga an'ana va urflariga tahdid soladigan harakatlar doimiy havf sifatida saqlanib qolishi muqarrar. Shu manoda bunday havflarga qarshi asosiy qurol sifatida yurtimizda yashayotgan har bir inson avvalambor unib o'sib kelayotgan yangi avlodning har tomonlama barkamol bo'lib voyaga yetishi uchun keng jamoatchilik va aholi o'rtasida ma'naviy marifiy faoliyatimizni yuksak darajaga ko'tarishning ahamiyati beqiyosdir. Darhaqiqat tinchlik va osoyishtalik bor joyda rivojlanish va taraqqiyot bo'ladi. Yigirma yillab o'zaro harbiy mojarolar tufayli sivilizatsiyadan batamom uzilib dunyoning eng qoloq mamlakatlaridna biriga aylanib qolgan Afg'oniston fikrimizning yaqqol dalilidir. Ko'ngilhushlik xam nazm va navo xam qachon insonning usti but, qorni to'q, tinch yashasagina qadrlidir."

Mavzumizni yaratish jarayonida insonning avvalo yosh avlodning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishda biz pedagoglar nimalarga etibor berishimiz yana nima ishlar qilishimiz to'g'risida mulohaza yuritishimiz mavzumizning tarbiyaviyligini ochib beruvchi tomonidir.

Pedagogika ta'lim va tarbiyaning uzluksizligi va birga qo'shib olib borilishi maktab faqatgina ta'lim dargohi bo'libgina qolmay, balki u tarbiya maskani ham

ekanligi ko'p marta takidlangan bo'lib, bolalar dars vaqtida ta'lim olish va qisman tarbiya olsalarda tarbiyaning asosiy qismini maktabdan tashqarida ya'ni oilada oladilar.

Prezidentimiz bekorga "Biga bitiruvchilar emas balki maktab ta'lim-tarbiyasini ko'rgan kadrlar kerak" deb aytmaganlar.

Shunday ekan maktablarimizdagi o'quv tarbiyaviy ishlarni zamonaviy biz yuqorida qayd etgan talablar darajasida tashkil qilinishi bu yo'lda har bir pedagog jon kuydirishi lozim.

Maktablarimizning aksariyatida "Biz bolaning maktabdagi davriga javobgarmiz, qolgan vaqtga ota-onaga javobgar bo'lishi lozim" degan noto'g'ri g'oya mavjud edi. Endilikda bu g'oya o'z-o'zidan yo'qolib bormoqda. Maktablardagi har bir pedagog o'zining jamiyat oldidagi burchini anglab yetmoqda.

Musiqiy san'atning tarbiyaviyligi shundaki, u yoshlardagi jaholatga qarshi nazokat tarbiyasining bir turi, bir ko'rinishidir. O'ylashimizga xalqimiz ming yillardan buyon amal qilib kelgan sharqona tarbiya uslublarga hozirgi kunda ahamiyatsizdek qaralmoqda.

To'g'ri bazi ota-onalar o'z oilaviy tarbiya uslublariga ko'ra tarbiyaning biz sanab o'tgan sifatlaridan hammasini bo'lmasada ko'pchilik uslublarini saqlab qolganlar va keyingi avlodga yetkazib bermoqdalar. Lekin bu tarbiya jarayoni ommaviylik kasb etmayabdi. Buning sababini quyidagicha izohlash mumkin:

An'anaviy xalq musiqa ijodiyoti hozirgi zamon o'zbek milliy musiqa madaniyatining tamal toshi hisoblanadi. Zero poydevoy qanchalik mustahkam bo'lsa imorat xam shunchalik uzoq saqlanadi.

Keyingi davrda musiqa san'atimizning taraqqiyotiga qo'yilgan lirik yo'l akademik ijro usulida yaratilayotgan xor, orkestr, opera, balet, cholg'u kuylari va boshqa janrlarda yaratilayotgan yuzlab, minglab musiqiy asarlar shu poydevor ustiga qurilgan imorat bo'lib, poydevorning mustahkamligi ularning asrlar osha yangi avlodga yetib borishi va yanada boyib borishiga maktabda tashqari o'tkazilayotgan ana shunday tadbirlar asos bo'ladi.

Mavzuning dolzarbligi xam mana shunga bog'liq. Agar biz o'zimizdan oldin yashab, ijod qilgan ajdodlarimizning musiqa madaniyati rivojiga qo'shgan hissalarini to'g'risida qanchalik chuqur va aniq bilimga ega bo'lsak, kelajak avlod xam shunchalik to'liq tasavvurga ega bo'ladi.

Mavzuning maqsadi. Mavzumizning "Maktabdan tashqari o'tkaziladigan ommaviy- musiqiy tadbirlarning bolalar badiiy- estetik tarbiyasida tutgan o'rni" deb nomlanishi ushbu mavzuning bolalar bo'sh vaqtlari, bunday vaqtlarda bolalar qilishi lozim bo'lgan yumushlarni har tomonlama yoritish, bolalar ilmiy va dunyoviy bilimlari doirasini kengaytirishning maktabdan tashqari sharoitda qanday tartibda olib borish yo'l-yo'riqlarini misollarga tayangan holda ilmiy va uslubiy asoslab beirshdan iboratdir. Hozirgi davrda bolalar bo'sh vaqtlarini umuman insonlar bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish dolzarb muammolardan biriga aylanmoqda. Jahon mamlakatlari giyohvandlik va narkomaniya, SPID (immunitet tanqisligi sindromi), qurolli harakatlar kabi jahon ommasini tashvishga solayotgan muammolar bizning mamlakatimizni xam chetlab o'tgani yo'q. Giyohvandlik to'g'li hududlarimizda ko'paygan bo'lsa, norkamanlik va SPID yirik shaharlarimizda uchrab turibdi. Qurolli harakatlar masalasiga kelsak Toshkent shahridagi portlashlar, Surhandaryoning Sariosiyo va Uzun tumanlaridagi, Qirg'izistonning Vobkent tumanidagi va nihoyat Andijon voqealari fikrimizning dalilidir. Bu voqealar yurtimiz farzandlaridan ayrimlari tashqi ig'volarga uchib vatan xoiniga aylandilar.

Mustaqillik mafkurasiga ko'ra bundayin qora ishlarga qarshi keng ko'lamda tushuntirish targ'ibot va tashviqot ishlari olib boriladi. Bunday targ'ibotlar esa xalqimiz manaviyatini pasaytiruvchi qora ishlarning oldini olish va yoshlarni to'g'ri yo'lga solishda muhum ahamiyat kasb etadi.

Mavzuning maqsadi esa bolalar bo'sh vaqtlarini tahlil qilish jarayonida bu masalaga har tomonlama yondashib, kerakli tavsiyalar berishdan iborat.

Mavzuning ahamiyati – esa masalani qay darajada o'rganganligimiz, tahlil qilganligimiz, tajriba sinov ishlari olib borganligimiz, muammolarning bartaraf etilishi uchun qo'llaydigan metodlarimiz va hakozolarga bog'liqdir. Albatta o'tgan

yillar ichida yurtimiz tarixida bo'lib o'tgan ko'ngilsiz voqealar, ularning kelib chiqishi, qoldirgan qonli izlari va oqibatlarini chuqur tahlil etish bolalar bo'sh vaqtlari muammolarini to'g'ri yechimini topishimizga yordam beruvchi omil hisoblanadi.

Bu ishda biz prezidentimiz I.A.Karimov asarlari, Oliy majlis kengashi va boshqa joylarda qilgan maruzalari, yurtimiz ulug' insinlari va voqealariga munosabatlari yoritilgan maqolalar, sharxlar va boshqa yozma manbalardan radio, televideniyalardan foydalanamiz.

Hozirda o'sib kelayotgan yosh avlodning hech kimdan kam bo'lmagan zamonda bilim olish uchun barcha sharoitlarni yaratish, bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni to'garak mashg'ulotlariga keng jalb qilish Prezidentimiz Islom Karimov rahnomaligida oshirilayotgan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 28 fevraldagi "Maktabdan tashqari ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora –tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosi doirasida Respublikamizda "Istiqlol g'unchalari", "Kamalak yulduzlari", "Yangi avlod", "Muhiddin qori Yoqubov nomli", "Kelajak ovozi" "O'zbekiston vatanim manim" nomli turli ko'rik tanlovlar tashkil etilganki bu ko'rik tanlovlar barcha yoshlarning turli yo'nalishlarda o'zlarining mahoratlarini ko'rsatish bo'rasida katta zamin yaratib bermoqda bu esa yosh avlodning ma'nan tarbiyalanib borishida ahamiyatlidir.

Mavzuning predmeti pedagogika, psixologiya, yoshlar fiziologiyasi fanlari, umumta'lim maktabi "Musika madaniyati" fani jumladan musiqiy fanlarni o'qitish metodikasi fanlari bo'lib, bu fanlarning ta'lim tarbiya ishlariga bog'liq ko'rsatmalari, yuritilgan fikrlarini qamrab oladi va mavzuni yoritishda biz ularga tayanamiz.

Mavzuning obyekti. Maktabgacha tarbiya muassasasi, umumta'lim maktablari o'quvchilari, musiqa va san'at maktablari, maktab internatlar, gimnaziyalar, o'rta maxsus o'quv dargohlari, xullas kichik yoshdan to bolalarning voyaga yetgunga qadar bo'lgan davrlarni qamrab olish, bu davrda ular oladigan

ta'limining maktabdan va sinfdan tashqari vaqtlariga diqqatni qaratish, bu vaqtlarni bolalar va yoshlar qanday o'tkazishi lozimligi nuqtainazaridan tahlil qilish va kerakli tavsiyalar majmuasini ishlab chiqishdan iboratdir.

I.Bob. Yosh avlodni milliy qadriyatlarimiz ruhidagi ommoviy - musiqiy tadbirlar orqali tarbiyalashning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni.

Dunyoda har bir xalqning asrlar, zamonlar osha yashab kelayotgan. Milliy qadryatlari bor. Yosh avlodni ma'nan barkamol etib tarbiyalashda ham shubhasiz, milliy va umuminsoniy qadryatlarga asoslanamiz.

Aynan milliy va umuminsoniy qadryatlar qadrlangan jamiyatda ijtimoiy siyosiy muhit fuqorolik institutlarini rivojlantirish uchun etarli darajada

shakllangan bo'ladi, bunday jamiyatda u yoki bu masala yuzasidan jamoatchilik fikri ana shu qadryatlar asosida yuzaga keladi. Eng muhimi, turli millat elatlarga xos milliy qadryatlar umuminsoniy qadryatlar bilan uyg'unlashib, dunyoda xalqaro birdamlik hamjixatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Barchamizga ma'lumki, millat va xalqning ruhi, dunyoqarashi va turmush tarzini ifoda etadigan milliy ma'naviyatga munosabat, uni zamon talablari asosida rivojlantirish, yoshlarning dunyoqarashi va tafakkurini o'zgartirish masalasi har tomonlama chuqur va puxta o'ylab uyushtirishni talab qiladi. Bu borada to'g'ri yo'l tutish uchun awalambor milliy qadriyatning o'zi nima ekanini yoshlarga aniq tushuntirish zarur. Albatta, biz tarix sinovlaridan o'tgan, milliy manfaatlarimiz, bugungi va ertangi orzu-intilishlarimizga, taraqqiyot talablariga to'la javob beradigan, yillar o'tgan sari qadri ortib boradigan g'oya va tushunchalarni qadriyat deya ulug'lashimiz va uning yoshlarimiz ongida milliy tuyg'ular bilan sayqal topishi bosh mezondir. Milliy qadriyat bu-milliy ong va tafakkur mevasidir. Milliy qadriyat bu-awalo diniy e'tiqod, ona tili, ajdodlarning boy ma'naviy va moddiy merosi bilan ifodalanadi. Agarda yoshlarimiz milliy qadriyatni to'laqonli anglay olsalar va his qilsalar, ular buyuk O'zbekistonning bugungi mustaqilligini mustahkamlab, ertangi kunga mustahkam poydevor yaratishgan bo'lishadi. Chunki o'zlikni, milliylikni anglash insonga zamonlar silsilasida eng ishonchli zafarlar xaritasini in'om etadi.

Shu o'rinda haqli bir savol tugiladi milliy o'zlikni anglash qanday yuzaga keladi? Milliy o'zlikni anglash avvalombor milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'ulari negizida shakllanadi. Xo'sh milliyg'urur va milliy iftixor tushunchalarining o'zi nima?

Milliy g'urur shaxs ijtimoiy guruhining milliy o'z-o'zini anglashi asosida shakllanuvchi ajdodlar qoldirgan moddiy ma'naviy merosdan o'z xalqi va millatinning dunyo tamadduniga qo'shgan hissasi jaxon xalqlari oldidagi obro'si va qadr qimmatidan fahrlanish demakdir.

"Tarix xotirasi xalqning, jonajon o'lkaning, davlatimiz hududining xolis va xaqqoniy tarixini tiklash miliy o'zlikni anglashni, ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi »³

Bugungi kunda yurtimizda yashab o'tgan buyuk ajdodlarimizni, mutafakkirlarimiz, donishmandlarimizni hayotini, ijodiy faoliyatini, ulkan kashfiyotlarini jaxon hamjamiyati tan olgan holda ularga katta ehtirom bajo keltirmoqda. Ajdodlarimiz hayoti va ijodini chuqur o'rganish, ular qoldirgan boy madaniy, meroslarni qadriga etish, ularga ixlosmandlik xissi milliy o'zlikni anglashdagi muhim omildir. Milliy o'zligini anglagan kishidagina milliy g'urur va milliy iftixor tuyg'ulari shakllanadi. Yosh avlodda milliy g'urur va milliy iftixor tuyg'ularini shakllanishida ajdodlarimiz merosi etakchi o'rin egallaydi.

Buyuk ajdodlarimizdan bebaho me'ros bo'lib kelayotga vatanga muhabbat tuyg'usi, o'sib kelayotgan yosh avlod uchun ibrat namunasi sifatida kelajakda ular ham ajdodlari kabi vatanparvar bo'lib etishlarida o'rnak bo'lishi lozim. Milliy g'ururni shakllantirish esa awalo, milliy o'zlikni anglashdan boshlanadi. Zero, milliy o'zligini anglagan xalq nafaqat o'zini, balki o'zga millatni ham hurmat qiladi.

Milliy o'zlikni anglash esa vatanparvarlik va xalqparvarlik tuyg'ularini shakllantiradi, vatanni ichki va tashqi yovuz kuchlardan omon saqlashga da'vat etib uning taraqqiyotiga bor kuch va shijoatini safarbar etishga chorlaydi. Milliy o'zlikni anglash har bir xalqning o'ziga xos munosib o'rnini aniqlash, har bir fuqoroning o'z millati manfaati, shon sharafi uchun kurashga dadil intilishidir.

Yoshlarni o'tmish qadryatlarimizga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalashda ta'lim- tarbiyaning, turli xil usullaridan, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlardan, yuksak badiiy estetik san'at asarlaridan foydalanish muhim omil va vosita bo'lib hisoblanadi.

Yoshlar o'rtasida olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda ularda milliy tariximizda o'chmas iz qoldirgan Shiroq, To'maris, Spetamin, Muqanna, Jaloliddin, Manguberdi, Amir Temur, Zaxiriddin Muxammad Bobur kabi tarixiy siymolarni Vatan ozodligi musaqilligi el -yurt farovonligi va obodonchiligi yo'lida olib borilgan faoliyatlarini ibrat qilib ko'rsatish ularga munosib voris bo'lish hissini

shakllantirish muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, yoshlarning qiziqishlari, dunyoqarashlari, intilishlari va emotsional xususiyatlarini hisobga olgan ta'lim muassasalari, mahalla, kamolot yoshlar ijtimoiy xarakati kabi ijtimoiy institutlar hamkorligida turli kecha, uchrashuv, sport musobaqalari va boshqa madaniy- ma'rifiy tadbirlarni ularning mazmun mohiyatiga milliy go'ya va mafkuramizni singdirgan xolda o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Milliy o'zligini anglamagan xalq yoki millatda o'z ona yurtidan g'ururlanish hissi bo'lmaydi. Ajdodlar qoldirgan boy merosdan zavq ololmagan millatda esa faxrlanish hissi ham bo'lmaydi. Bunday jamiyatda esa rivojlanish vataraqqiyot ham orqaga ketadi. Shuning uchun ham biz o'sib kelayotgan yosh avlodda milliy o'zlikni anglash orqali ularda milliy gurur va milliy iftixor tuygularini shakllantirishimiz, o'tmish qadryatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalashimiz lozimdir.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, ming yillar davomida Sharq musulmonlari mafkurasini tashkil etgan islom ta'limoti va uning huquqiy manbalaridan hisoblangan "Qur'oni Karim" va "Xadisni" o'z ona tilimizda o'qish va o'rganishga erishdik. Tarix va hayot tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyoviy va diniy qadryatlar bir-birini to'ldirmas ekan, bugungi kunning ogir va murakkab savollariga to'la to'kis javob topish qiyin. Mustaqillik tufayli xalqimizning ko'p asrlik tarixiga ega bo'lgan ma'naviy-intelektual merosini o'rganish, jaxon ilm fani va texnikasi yutuqlaridan bahramand bo'lish, dunyoning mashhur ilm dargohlarida o'qish o'rganish imkoniyati keldi. Ayniqsa, bozor munosabatlariga o'tish, zamonaviy ishlab chiqarishni rivojlantirish, barkamol insonni shakllantirishda ilm fan yutuqlariga tayanish hayotiy zaruratga aylandi.

Yangi avlodni tarbiyasi, kelajak vorislarini tayyorlash dolzarb masalalardan biridir. "Ta'lim to'g'risida"gi hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" hamda qonunlarni e'tirof etilishi qobiliyati va iste'dodli yoshlarni to'g'ri tarbiyalash jarayoni jamiyatda o'z o'rnini topishga va ma'suliyatni his etishga o'rgatadi. Direjyor asar musiqasining ijodiy rivojlantiruvchi, uning ruhi bilan yashashini talab qiluvchi, sabr-bardosh talab qiluvchi ma'suliyatli kasbdir.

Bu sohaning murakkabligi shundaki, xor jamoasining nafaat mukammal ijrosi balki uning sirlarini ham bilishi kerak. Jamiyat ma'naviyatining yuksaltirish-davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.

Direjyorlik- bu qo'shiq aytish ya'ni royal, skripka yoki boshqa cholg'uni chalish kabi ijrochilik san'atidir. Shu bilan birga direjyorlik ijrochilik sana'tining boshqa turlaridan jiddiy farq qiladi. San'atlar ichida eng yoshi va eng kam o'rganilgani direjyorlik san'ati hisoblanadi.

Direjyorlik amaliyoti uning nazariy ancha orta qoldirdi. Biroq aynan nazariyaga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Ayniqsa direjyorlikka o'rgatish ishiga ehtiyoj katta. Direjyorlik sohasida ta'lim berish uchun nazriya negiz yaratishga doir izlanishlar tinimsiz davom etayapti. Direjyorlik faqat ichki tayyorgarlikga asoslanadi va bunga alohida qobiliyatli insonlar qodir. Direjyor ko'plab bir-biridan farq qiluvchi insonlar bilan ishlaydilar. U o'z oldida utrgan xor yoki orkestr a'zolarini bir jamoaga to'plab ular shunday birlashtirishi kerakki bu jamoaga to'plab, ular shunday birlashtirilishi kerakki, bu jamoa huddi tozalangan yaxshi musiqa kabi bo'lishi kerak.

Aytish joizki, direjyorga o'z sana'ti haqida yozishdan ko'ra direjyorlik qilish osonroqdir albatta. Direjyorlik faoliyatini ko'zga ko'rinuvchi qismini tasniflash qiyin. Chunki u yoki bu qo'l harakatini musiqasiz so'zlar bilan tavsildagandan ko'ra uni musiqa fanida ko'rsatib berish osonroqdir. Shuning uchun direjyor ishining o'ziga xosligi orkestr yoki xor rahbari sifatida uning zimmasga yuklatilgan vazifaning naqadar murakkabligi hisobga olgan holda aytish mumkinki, bo'lajak direjyor ushbu murakkab va ma'suliyatli ishda muvaffaqiyat qozonish imkonini beradi. Katta musiqiy-nazariy va amaliy tayyorgarlikka ega bo'lish shart.

“Direjyor” so'zi turli tillarda turlichat talaffuz qilinadi. Nemislar “Dirider” italyanlar “Diridente”, fransuzlar “Shef orkestri”, inglizlar “kondukt” deyishadi. Har qaysi tilda ham bu so'z ma'nosi boshliq, director, rahbar ma'nolarini beradi. Direjyor bu jamoaning hayoti faol va yaxshi shakllantirilgan bo'lishini nazorat qiladi. Direjyor ijrochilar musiqiy asarni uyg'unlikda ijro etsinlar, ular asarni birga

boshlab, birga tugatsinlar, pauzalarni vaqtiga qarab ushlab, bir maromda kuy boshlashlarini ta'minlaydi. Direjyor xor ijrosini yagona ritm va tempga moslashtirish uchun belgi berishi lozim.

Direjyor kasbi juda murakkab va murakkabdir. Direjyor u juda aqliy mehnat doimiy jismoniy quvvta talab qiladi. Demak direjyor mustahkam salomatlikka, chidam va bardoshga ega bo'lishi zarurdir. Direjyor o'zi avvalo musiqiy asarning g'oya va mohiyatini chuqur anglashi, uning maqsadlarini chuqur anglashi lozim. Barcha musiqachilar kabi direjyor ham musiqaning elementar nazariyasini, polifoniya, musiqiy asarlar tahlilini yaxshi bilishi juda muhimdir.

Shuning uchun u inson ovozi haqida umumiy ma'lumotga ega bo'lishi, cholg'ushunoslik, musiqa tarixi, estetika va boshqa kerali sohalardan behabar bo'lmog'i lozimdir. Direjyor orkestr yoki xorga nisbatan rahbar, o'qituvchi, instructor bo'lishini ham unutmasligi lozim. Bundan tashqari direjyor alohida qobiliyatga ega, ma'naviyatli, tashabbuskor, qattiyatli, intizomli, tashkilotchilik ite'dodi uyg'unlashgan bo'lishi kerak.

Direjyor ziyrak va oqil pedagog-tarbiyachi bo'lishi, shuni aytish joizki, mardlik, halollik va prinsipallik kabi xususiyatlarsiz haqiqiy direjyorni asavvur qilib bo'lmaydi.

Xorshunos olimlarning ilmiy kuratishlari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy xorlarni to'g'ri boshqarish uchun obyektiv va subyektiv tashkiliy omillarni hisobga olish zarurdir. Xor rahbarlari havaskorlik xorlari bilan ishlash jarayonida uchraydigan ayrim qiyinchiliklarni bartaraf qilishlari uchun xonandalarning orzu-istaklari va ehtiyojlarini tushuna bilish lozimdir. Shundagina ular jamoada jiddiy sog'lom ijodiy muhitni yuzaga keltira oladi, puxta va to'g'ri tashkil qilish xorni ijodiy kamolotga yetaklaydi. Buni tashkil qiluvchi usullar quyidagilardan iborat:

- Xor uchun moddiy va ma'naviy zamin tayyorlash.
- O'z-o'zini boshqarishni bilish;
- Mashg'ulotlarni muntazam yo'lga qo'yish;
- Intizomli bo'lish;

- Jamoa ishlarini mumtazam yo'lga qo'yib rejalashtirish va amalgam oshirish;

Tartibli va rejali ravishda ish olib boorish rahbarning bilimdonligiga va tashkilotchiligiga bog'liq. Xor ishining tashkiliy tomonlaridan biri uning haftalik va oylik ish normasidir. Ular 2-3 marotaba amalgam oshiriladi. Xor bilan ishlaganda, xor guruhlariga navbat bilan dam berish lozim. Masalan erkaklar guruhi bilan ishlaganda esa alohida partiyalar bilan ishlash lozim. Umumiy xor bilan ishlaganda esa shu yo'l bilan yoki xor ishtirokchilariga 3-4 minut o'tirgan joyda dam berish ularga asar matni yoki ijrodagi ba'zi tomonlarini tushuntirib yana ishni davom ettirish kerak.

Ovoz toliqishlaridan yo'l qo'ymaslikka xor ishtirokchilarini zeriktirmaslik kerak. Ovoz toliqishidan asrash lozim. Buning uchun rahbar mashg'uloti qiziqarli o'tkazish oldiga qo'yilgan vazifani bajaraman deb xorni qiynamasligi kerak. Mutoyiba qilib xonandaning charchog'ini chiqara bilish lozim. Xor bilan ishlash muntazam tavishda olib boorish kerak. Shundagina xor ijodiy yutuqqa erishish mumkin.

Mashg'ulot yo'l bo'yi imkoniyat berishga o'zgartirmay olib boorish kerak. Xor jamoalarini turli xil turlari bor. Bular ayollar xori, erkaklar xori, bolalar xori va aralash xorlar. Xor asari jiddiyroq bo'lsa uni o'rgatish osonroq bo'ladi. Birinchidan xor har bir xonandalarni o'z ovoz guruhi (partiyasini) kuyini chuqqurroq idrok etadi va ikkinchidan rahbar turli bir xonandaning ijrosini kuzatish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Har bir rahbar navbatdagi mashg'ulotni o'tkazish rejasini oldindan tuzish shart. Xor ishini tashkil qilish bilan birga u rejalashtiriladi, hamda butun qilinadigan ishlarni qayd qiladi. xor jamoasining barcha faoliyatini aks ettiruvchi yillik ish rejasini tuziladi. Yillik reja asosida har bir mashg'ulot rejasi tuziladi va shunga asoslanib darslar deb boriladi. Ish rejasini repertuar sohasiga yil davomida o'rganiladigan asarlar va mualliflarning nomlari yoziladi.

Dirijyorning o'zi, avvalo ,usiqiy asarning g'oya va mohiyatini chuqur nanglashi, shundan so'nggina uni orkestrga yetkazib, musiqachilar uning

maqsadlarini amalgam oshirishlariga erishish lozim. Dirijyor partiturasidagi unsiz nota belgilariga hayot ato etishi lozim. Bunda u musiqani t'g'ri talqin etishi zarur. O'z ishini yaxshi bilaydigan yoki itedodsiz direjyor tomoshabin oldida, hattoki eng ajoyib musiqiy asarni ham barbod qilishi mumkin. Ayniqsa, asar yangi, hali ko'pchilikka notanish bo'lsa. Shuning uchun yangi asarni ijro etishda dirijyor juda ehtiyostr bo'lishi kerak. Chunki eni avval eshitmagan tinglovchi dirijyor xatolarni bastakprniki deb o'ylashi mumkin.

Albatta, har qanday mahoratli, yuksak iqtidor sohibi bo'lgan dirijor ham yomon musiqani yaxshi qilolmaydi. Biroq musiqiy asarning noyob tomonlarini ochib berish, yoki muallif g'oyasini buzib ko'rsatgan holda, bunday xususiyatlarni yaratish-faqat dirijyorga bo'g'liq. Shu bois Rimskiy Korsakovning "Dirijyorlik-qorong'u ish" degan iborasi qaysidir ma'noda shu kumgacha o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Barcha musiqachalilar kabi, dirijyor ham musiqaning elementar nazariyasini, solfedjio, garmoniya, polifoniya, musiqiy asarlar tahlilini yaxshi bilishi kerak. Shuningdek, u inson ovozi haqida umumiy ma'lumotlarga ega bo'lishi, cholg'ushonslik, musiqa tarixi, estetika va boshqa kerali sohalardan bohabar bo'lmog'I lozim. Dirijyor orkestr yoki xorga nisbatan rahbar, o'qituchi, instructor bo'lishini ham unutmasligi kerak. Bu mezonlar dirijyor hoh u yosh, hoh u qari, tajribali yoki o'z faoliyatini endi boshlayotgan bo'lsin barchasidan bohabar bo'lmog'i lozim.

Albatta, dirijorlik vazifasini amaliy faoliyatsiz to'plab bo'lmaydi. Biroq bu faoliyatdan oldin, ya'ni boshlovchi dirijor orkestr yoki xor qarshisida turish huquqini qo'lga kiritguncha qilinishi lozim bo'lgan ishlar ko'p. Buning uchun endi faoliyat boshlayotgan dirijor alohida qobiliyatga ega bno'lishi kerak, bu-o'ta muhimdir. Bundan tashqari u yaxshi musiqa chi bo'lishi, ya'ni musiqiy madaniyat va bilimga ega bo'lishi lozim. Musiqa sadolarini yaxshi ilg'ash, ritm va temp hissi, musiqiy shakl va uslubni tushunish qobiliyatini, musiqiy did, mt'yor hissi, musiqiy xotira va tasavvur kabi ijrochi-musiqachilarga xos xususiyalardan tashqari dirijot yana bir qator alohida jihatlarga eham ega bo'lishi kerak.

Bunda avvalo qo'llarning maqsadga mu muvofiq va ohista harakatlari hamda shunga yarasha yuz ifodasi yuz ifodasi yordamida orkestr yoki xor az'lolariga musiqiy asarning mohiyatini yetkaza olishdir. Bunda dirijor o'zini nazorat qila bilishi, har qanday vaziyatda tezkor va ifodali bo'lishi lozim. Bularning bari dirijorga musiqa asarlarini tinglovchi oldida ijro etilayotgan paytda yuzaga kelihi mumkin bo'lgan og'ir vaziyatlardan muvafaqkiyat bilan chiqib ketishi uchun kerak bo'ladi. Dirijyorda tashabbuskorlik, qattiyatlilik, intizomlilik, tashkilotchilik istedodi uyg'unlashgan bo'lib, shu bilan birga jamoaga nisbatan xushmuomalalik, osoyishtalik va chuqur his eta bilish namoyon bo'lishi kerak.

Orkestr yoki xor bilan ishlash uchun dirijor ziyrak va oqil pedagog-tarbiyachi bo'lishi lozim. Bunga qo'shimcha qilib shuni aytish mumkinki, mardlik, halollik xususiyatlarisizi haqiqiy dirijorni tasavvur qilish juda qiyin.

Repititsiyalarda dirijor orkestr u yoki bu musiqiy asarni ijro etishga tayyorlaydi. Bunda har bir orkestr yoki xor jamoasi o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini hisobga olish zarur. Shu bois dirijor oldida turgan vazifalari ko'p bo'ladiyu, unga ajratilgan vaqt esa kam bo'ladi. Qisqa vaqt ichida orkestrga kerak bo'lgan hamma narsaga ulgurish lozim. Biroq dirijorning o'zi ham repititsiyaga muhtuju-ku, ayniqsa, agar orkestr bilan yangi musiqiy asarni birinchi bor mashq qilayotgan bo'lsa. Agar dirijor faqat orkestr uchun qayg'urib, o'zi ustida ishlash haqida unutib qo'ysa, bu uning xatosidir.

Agar dirijor o'zi haqidagina o'ylab, orkestrni tashlab qo'ysa, undanda noto'g'ri yo'l tutgan bo'ladi. Bordiyu, dirijor orkestr haqida o'ylamasa, o'zining dirijorligi, o'zining dirijorligi haqida unutib qo'ysa va faqat shunday bo'lishi kerakligi uchungina majburiy ishlasa yoki xotirasini sinash maqsadida yoddan dirijyorlik qilib, o'z harakatlarining go'zalligiga mahliyolik tug'usi bilan yashasa bundanda yomoni bo'lmaydi.

Ko'rinib turibdiki, dirijyorning vazifalari ko'p va ma'suliyatli. Xo'sh, musiqa sanati oldida shunchalik katta ma'suliyatli bo'lgan sana'tkor qanday fazilatlar egasi bo'lishi kerak? Dirijor va orkestr o'rtasida "ko'zga ko'rinmaydigan

aloqa” vujudga kelishi uchun zarur bo’ladigan intellektual, ba’diiy-ijodiy, professional va insoniy fazilatlarning ko’pqirrali majmuasi nimalardan topadi?

Bu avvalo keng ko’lamli musiqiy bilimlardir. Dirijor ko’p musiqiy asarlar-ularning shakli, turli davrlarga xis musiqiy tilning xususiyatlarini bilishi kerak. Orkestrning har bir musiqachisi qanday muammoga uch kelishi va uni bartaraf etish yo’lini tushunish uchun orkestrning har bir musiqa cholg’usini ya[shi bilishi shart.

Dirijor orkestr partiturasini erkin o’qiy olishi, musiqa tarixi sohasida keng bilim dunyoqarashga ega bo’lishi kerak. Bundan tashqari, agar tartib bilan sanab o’tsak, “iste’dod” deb atashga o’rganganmiz-asosiy ifoda vositalarga kiruvchi musiqiy ershitish, xotira temperament, tasavvur qilish qobiliyati, musiqiy shakl va absambl hissi, urg’u sergirliigi, qo’llar va yuzniing ta’biy harakatchanligi-bularning hammasi dirijyorga orkestr a’zolariga o’zining ba’diiy maqsadlarini yetkazishga yordam beruvchi vositalardir.

Ba’zi dirijyorning qo’l harakatlari erkin va plastic bo’lasada, ijrochilar ularni baribir tushunmaydilar. Buni shunday izohlash mumkin.ular o’zlarining chiroyli qo’l harakatlari bilan ma’no ifoda eta olmaydilar. Shu bois dirijyorga qo’l harakatlarining tashqi chiroyi emas, balki ularning ma’nodorligi va ishontiruvchnligi muhim. Buning eng yaxshi isbori sifatida buyuk rus kompozitori Chaykovskiyning ajoyib sirjor Artur Nikish gaqida quyidagi so’zlarni keltish joiz: “Uning dirijorligi – deb yozadi P.I.Chaykjovskiy,- Gans Fon Byulovning ta’sirchan va o’ziga xos usuliga mutlaqo o’xshamaydi. Fon Byulo qanchalik harakatchan, notinch va ko’zga tashlanuvchi harakatlari tqa’sirchan bo’lsa, janob Nikish shunchalik xotirjam nafis, ortiqcha harakatlardan holisdir.

Zamonaviy dirijorlik-yuz ifodasi va qo’l harakatlari tili sifatida insonning ko’p asrlik tajribasi bilan sinalgan muloqot vositasidan foydalanib, shakllangan. Qo’l harakati va yuz ifodasi hammaga tushunarli, serma’no va boydir. U darhol qaytariluvchi emotsional javobga sabab bo’ladi. Qo’l jarakatlari katta hissiy-obrazli ifoda kuchiga ega; ular jahldor yoki muloyim, so’roq yoki tasdiqlovchi, iltimos qiluvchi yoki rad etuvchi, davatkor yoki taklif qilivchi, kutib oluvchi yoki

hayratlanuvchi, ogohlantiruvchi yoki tahdid qiluvchi bo'lishi mumkin va hakazo. Ijro etilayotgan musiqaning obrazli-emotsional mohiyatiga qarab u yoki bu ma'noli harakat qilinadi.

Turli drijorlarda qo'l harakatlari va yuz ifodasi (mimika)ning nisbiyligi turlicha. Aytish mumkinki, mimika, asosan kerakli emotsional (hissiy) holatni, qo'l harakatlari esa ijroning texnik detallarini boshqaradi. Mimika-drijorning obrazli fikrlashi naqadar yorqin va aniqligini namoyon etuvchi omildir. U –ma'nofdor qo'l harakatlarining doimiy hamrohidir. Zero, qo'l harakatiga hamroh bo'lgan nigoh uni ruhlantirilgan qolmay, uning ta'sirini kuchaytirib, birinchi navbatda bu harakat mo'ljallanganini ham bildiradi. Agar yuz ifodasiz bo'lsa, hatto eng aniq va nozik qo'l harakatlari ham kerakli badiiy ta'sirga ega bo'la olmaydi. Hattoki, ba'zi hollarda mimika qo'l harakatlaribi ortta qoldirib, asosiy ma'no kasb etadi.

Yaxshi dirijor bo'lib yetishish uchun ko'p narsani bilish kerak, avvalo, haqiqiy musiqachi bo'lishi kerak. Taniqli dirijor Oskar Frid aytganidek: “Eng nozik musiqiy tasavvurlarni ilga'shga qodir yurak bilan tug'ulish kerak, ana shu tasavvurlarni g'oyalarga aylantirishga qodir aqlni tarbiyalash zarur, bu g'oyalarni orkestrga yetkazish uchun esa kuchli qo'lga ega bo'lish lozim.

Mohir dirijorning sanataini orkestrdan ajratib bo'lmaydi deganimizda, biz avvalo uning ijchilar jamoasini ko'ptovushli va rang-barang yagona musiqa cholg'usi sifatida qabul qilish qobiliyatini nazarda tutiladi. Ana shu yagona musiqiy cholg'u-tirik, o'ziga xos tarzda fikr yurituvchi, his qiluvchi va yaratuvchi ijodkor-musiqachilar guruhidan iborat ekanligini doimo esda tutish kerak.

Dirijor navo, xirgoyi va ritm hissiga ega bo'lish lozim. Qachonlardir Vagner musiqiy jumlani mantiqan hirgoya qilib berishni bilmagan dirijor, to'g'ri tempo-ritmni ham topa olmasligini, musiqanng o'ziga esa uning uchun qandaydir mavhum, grammarika, arifmetika va gimnastika o'rtasida qandaydir mujmal narsa ekanligini qayd etgandi.

Dirijorning vazifasi-dorni o'z irodasiga buysundirgan holda barcha musiqachilarning musiqani yakdil his qilishini ta'minlash, ularni birlashtirish, yuzta turli shxsdan o'zining har bir harakatiga qaran ish tutuvchi yagona organism

yaratishdan iborat. Bunda quvonchli ijod jarayoni, ijodkorga xos va uni sana'atga ruhlantiruvchi kuchni asabiylikdan asrash lozim. Zero, ijodiy jarayonda o'zini tuta bilish, yaxshi kayfiyat, ijodga berilib sho'ng'ib ketish hamroh bo'lsa, asabiylik, o'ziga ishonmaslik, quyush qondan chiqib ketish kabi salbiy oqibatlarga olib keladi.

O'zni qo'lga ola bilish qobiliyati, bor mahoratni ishga solish, mavjud bilimlardan to'g'ri foydalanishning birinchi shartidir. Shu bois ijrochining ijodiy mahorati, ya'ni uni artistlik qobiliyati xususiyatlari va undan doydalana olish qobiliyati musiqqa ijrochisiga ta'sir qilmay qoldi. Ijro jarayonida ana shu ijodiy harorat chegarari juda aniq belgilanishi kerak. Haddan ziyod yuqori harorat asabiylashuvga, badiiy pulsning noaniq bo'lishiga, juda past harorat esa ijodiy jarayonning jonsizlanib, samarasiz bo'lishiga olib keladi. Bulardan birinchisi ijrochini badiiy jihatdan o'zini qo'lga ola bilishdan mahrim qiladi, ikinchisi esa hissiyotlarni yo'qqa chiqaradi.

O'z vaqtida Sharl Myunsh: "Agar dirijor ichki hissiyot kuchiga, orkestr a'zolari va tinglovchilarni sehlrab qo'yisha qodir ohangraboga ega bo'lmasa, unda hatto 15 yillik mehnat va o'qish jarayoni ham insonning dirijor bo'lishiga yordam bera olmaydi" degan edi.

Dirijor ijro etilayotgan asarni juda yaxshi bilishi, nota materialini yaxshi yodlab, o'rganib olish kerak. Biroq kompozitorning badiiy maslagi va maqsadlarini tushuntirib, ochib berishi uchun uning nota yozuvi zahirida yotgan tub ma'noni chuqur anglashi lozim.

Asarni ko'z bilan maqsadga muvofiq emas, uni ichki eshitish va urg'u bera bilish kerak. Partiturani ijro etishdan oldin ichki hissiyot bilan o'rganuvchi va orkestr repitetsiyasi boshlanguncha tinglanadigan narsani aniq biluvchi dirijor-juda chuqur ijodir hodisadir. Zero, bunday dirijor musiqani ijodiy tafakkur yoki fikr sifatida namoyon etadi, u dirijorlik texnikasini puxta o'zlashtirgan bo'ladi. Dirijolik texnikasi esa, mohiyati, ijrochiar jamoasiga ma'lum tashqi belgilar orqali o'zining niyatlari va maqsadlarini yetkazish hamda ularda o'znikidek hissiyotlar uyg'otishdan iborat.

Musika sohasidan yiroq bo'lgan tinglovchiga dirijor mehnati ba'zida oson, texnikasi esa jo'n va oddiylik tuyuladi. U "dirijor bo'lish uchun musika jo'rligida tayoqchani pastga, tepaga ko'tarsa, bas deb o'ylashi mumkin. Vaholanki, dirijor tayoqchasining harakati, uning o'z maqsadlarini ijrochilarga yetkazishning asosiy vazifasidir. Bu butun dunyo dirijorlari o'z mamlakatlari va xorij orkestrkarining ijrochilari bilan muloqot qiluvchi o'ziga xos tildir. Uni barcha orkestr, xorning birdek tushunishlari uchun esa dirijor bu tilni mukammal bilishi lozim.

Dirijor qo'l harakatlari mukammal darajada ma'nodor bo'lishi uchun o'ng qo'l va uning "davomi" bo'lgan tayoqchaning barcha harakatlari o'zaro mutanosib bo'lishi kerak. Chap qo'lga kelsak, u asosan o'ng qo'l harakatini ma'no jihatidan to'ldirib turishi lozim. Tayoqcha esa dirijorning biagi, kafti va barmoqlarning davomi bo'lishi darkor. Ularga bo'ysinar ekan, tayoqcha dirijorning nozik kechinmalari, uning aql idroki va hisdiyotlarini aks ettiruvchi xos oyna sifatida namoyon bo'ladi.

Erkin va qulay qo'l harakatlari shubhasiz dirijor mahoratning belgisidir. Uni turli mamlakat dirijorlari ko'p yillar davomida ishlab chiqqanlar. Uning samarsida ayni paytda kelib dirijor qo'l harakatlarining rivojlangan tizimi shakllanib ulgurdi. Dirijorning qo'l harakatlari-deb yozadi Nikolay Malko,-hamma narsani bildirishi, birinchi novbatda taktlash, ya'ni takt hissalarini qo'l harakati yordamida ifodalash kerak. Shuningdek dirijorning qo'l harakatlari musiqiy cholg'ularning chala boshlashini va ijroning to'xtalishini ham ko'rsatib beradi. U shungdek, turli cholg'ularning yoki orkestr guruhlarining tovush kuchi qanday bo'lishi va qachon sur'at o'zgarishi, harakat to'xtatish, ya'ni fermata bo'lishi va hakazolarni ko'rsatadi.

Tomoshabinlar dirijor o'ng qo'lida tayoqcha ushlashni chap qo'li esa erkinroq harakat qilishiga e'tibor bergan bo'lish kerak. Dirijorning har bir qo'li go'yoki o'z hayoti bilan yashaydi. Darhaqiqat, dirijorning o'ng va chap qo'li alohida ahamiyatga ega.

O'ng qo'l takt belgilaydi,-deb yozadi sharl Myunsh, chap qo'l esa o'ziga xos xususiyatlar va o'zgarishlarga ishora qiladi. O'ng qo'l aqlniki, chap qo'l yurakniki

va o'ng qo'l doimo chap qo'l nima qilayotganini bilishi kerak. Qo'llaridan tashqari dirijorning ko'zlari, yuz ifodasi, uning tana holati ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ba'zan musiqada mavjud bo'lgan quvonch yoki qayg'u, g'zab yoki hotirjamlik kabi tuyg'ularni bildirish uchun dirijorning birgina nigohi kifoya bo'ladi.

Demak. Dirijorlik kasbi-og'ir mehnat hamdir. Har bir konsert dirijordan ulkan jismoniy va ruhiy kuch hamda matonat talab etadi. Shu bois sportchi yoki balet artisti kabi mustahkam salomatlik, jismoniy quvvat, iroda kuchi, o'zini tuta bilish qobiliyati va o'z tanasini mukammal boshqara olish xususiyatiga ega bo'lish lozim. Haqiqiy sana'tkor, avval o'zi ijro etgan asarlarni boshqattan ijro etganida undagi badiiy obrazga yangi b'yoqlar baxsh etuvchi qirralar olib kiradi. Shu o'rinda buyuk Artur Nikishning quyidagi so'zlarni keltirish joiz: "Agar siz bitta asarni bir yil davomida har kuni repitetdiya qilsangiz ham, uning har bir ijrosi improvizatsiya bo'lishi kerakligini unutmang". Shu bois har bir dirijor o'z musiqiy faoliyati davomida musiqiy adabiyorlarni chuqur o'rganib borishi kerak. Shaxsan o'ziga nima uoqishidan qat'iy nazar, dirijor har qanday millatlarga, uslubga, davrga moq adabiyotni, ayniqsa zamonaviy musiqiy adabiyotni yaxshi bilishi lozim. Konsertlar, opera tetrlariga borib turish va tanishish, dirijorning ijro mahoratini tahlil qilish-musiqiy dunyoqarashni kengyatirishga xzmat qiladi.

Musiqadan ilhomlanuvchi haqiqiy usta sana'tkr shaxsiy narsalardan mutlaqo yiroqdir. Musiqaga singib ketib, uning obrazlari bilan yashar ekan, dirijor barcha ichki kuchlari-fikrlari, hissiyotlari, tasavvurlari, temperamenti bilan orkestrga ta'sir ko'rsatadi va u bilan birgalikda umumiy intilish samarida musiqiy asarni haqqoniy talqin etadi. U tinglovchilarga musiqadan boshqa narsa bilan ta'sir ko'rsatish fikridan nihoyatda uzoq bo'lishi kerak. Dirijordan tarqalib turadigan ichki quvvat tinglovchiga ortiqcha harkatchanlikdan va behuda sarflangan kuchdan ko'ra ko'proq ta'sir etadi. Tashqi xotirjamlik, lo'ndalik va shu bilan birgalikda tug'ular samimiyligi ham orkestr, ham tinglovchilarni o'ziga rom etadi. Musiqa og'ushiga, asarning dramaturgic mantiqi ta'siriga tushib qolgan tinglovchilar dirijorga e'tibor bermay oqo'yadilar, zero ular uchun musiqa –dirijor orkestrdan iborat yagona uyg'unlik, yahlitlik bor.

Jamoada har bir ijrochining qobiliyatini bilish nihoyatda muhim. Agar dirijor o'zini hayolan har bir musiqachining o'rniga qo'yib ko'rib, uning ruhiy holatini tushuna bilsa, unda orkestr bilan til topish ancha oson kechadi.

Shu bois ijrochilarga haddan tashqari o'z istaklarini qattiqqo'llik tarzida emas, balki ishontirish yo'li bilan muloyim biroq ayn payta yetarli darajada jiddiy holatda yetkazish maqsadga muvofiq. Aynan shu usul sanarkorlarni ijro etilayotgan musiqani yakdil tushunishlariga xizmat qiladi va hamnafaslikka asos soladi., ana shunda dirijor va orkestr o'rtasida chinakam muloqot boshlanb, ular birgalikda ijod qila boshlaydilar.

Endi, dirijorlik sanati tarixi bilan tanishganimizdan so'ng, biz bir qarashda jo'n tuyulgan tayoqcha harakatlari aslida musiqiy ijroning eng murakkab va qiyin turi ekanligini tushundik.

O'z ijodiy faoliyatini xor va xalq ansambllari bilan ishlashga ba'gishlangan yosh mutaxassislar talabalarni muntazam ravishda to'g'ri tarbiyalashi uchun zarur bo'lgan ijodiy-pedagogik jarayonni chuqur idrok qilishlari zarur. Rahbarning tashkilotchiligi ayniqsa xorni tashkil qilish davrida qo'l keladi. Xorni tashkil qilish ma'lum bir davrni o'z ichiga qamrba oladi. Xor rahbari ma'sul shaxsni bevosita hamkorligida tashviqot-targ'ibot ishlarini boshlaydi.

Rahbar xor bilan dastlabki uchrashuvga puxta tayyorgarlik ko'rishi lozim. Mashg'ulot o'tkazish uchun bo'lgan barcha shart-sharoitlari ham oldindan yaratilgan bo'lishi lozim. O'tirib kuylash uchun maxsus o'rinlarga yoki stullar, musiqa asboblari doska va hakazo. Xor mashg'ulotlarini qiziqarli bo'lishi uchun rahbar o'zining butun mahoratini ishga solishi lozim. Dastlabki mashg'ulotlarga bir ovozli kuylash bilan birga honandalarning ovozo tembri, diapazoni va musiqiy qobiliyatlarini tanish oladi. Bir ovozli qo'ashlarni o'rgata boorish, xonandalarni yahlit eshitib ko'rish jarayonini yengillashtirib beradi.

Xorning ikkinchi tashkiliy davrida xonandalarning ovoz va musiqiy imkoniyatlarini aniqlash ishlari bilan birga olib boriladi. Xor jamoasi xonandalarning ovoz tembriga qarab uning ovozi shakllanadi.

Xor rahbarining har bir ijrosi uning ovoz tembirni va diapazoniga qarab aniqlaydilar, xorda esa o'z o'rniga joylashtirilsa uning ovoz tembiriga aniqlanadi. Talabaning ovozi to'g'ri aniqlansa va xorda o'z o'rniga joylashtirilsa, uning ovozi to'g'ri aniqlansa va xorda o'z o'rniga joylashtirilsa, uning ovozi asta-sekin ochilib; ovoz apparati takomillasha boradi. Xorda vocal ishini to'g'ri yo'lga qo'yish imkonini yaratadi. Xonandalarni yakkama-yakka individual takshirib bo'lgach ma'lum bir partiyaga mansub ovozlardan bir nechta qismlarini qo'shib ma'lum notani cho'zib turib, ovoz harakterini bir-biriga yaqin xonandalardan aniqlash mumkin.

Bu usulda har tovushdagi tovushlar eshitilib turadi. Shulardan biri ularni ajratib yaqinlashtirishi oson. Demak xonanalarga vokal va musiqiy qobiliyatlarini aniqlab, ularning ovoz turiga qarab xorning ma'lum partiyasiga qo'yish bilan har bir bolalar ovozi guruhini to'ldirish mumkin.

Xor jamoasida xonanalarga musiqa-o'quv sabog'i bilan birga tarbiya berish bilan birga axloqiy normalarni shakllantiradi. Talabalar musiqiy nazariy bilimga ega bo'lishi xor ijrochiligini malakalarini va musiqiy didini shakllantirish hamda ularni har tomonlama tetuk kishilar qilib tarbiyalash kabilar ko'zda tutilgan.

Talabalar direjyorlik va xor darslarini quyidagi bilimlarga ega bo'lishlari shart. Ular solfedjio qilib kuylash musiqa nazariyati musiqa tarixi ijro mahoratga (vokal xor malakalari) va cholg'u sozlarini bilish kerak. Direjyor ijro mahorati haqida badiiy ifoda vositalarini talabalarga tushuntirishi kerak. Asarni o'zgartirishda ularning xarakteri haqida tushuncha beradi. Shungdek o'zbek, rus, ga'rb klassik kompozitorlari haqida ma'lumot berib eng asosiy nota bilan kuylashga o'rgatadi. Xor bilan ishlashda notasiz kuylashga o'rgatadi. Xor bilan uzluksiz maqsad talabalarni ko'proq nota bilan kuylashga o'rgatadi.

Direjyor ijro mahorati haqida badiiy ifoda vositalarini talabalarga tushuntirishi kerak. Talabalarga asrning shakli, qaysi tonlikdagi ijro surati, tovush kuchai, (dinamikasi) uchunchidan o'lchovi kabilar tushuntirish ishlarini olib borish kerak. Xor bilan ishlashda notasiz kuylash hollari ko'p uchraydi. Malakali direjyor jamoa bilan uzluksiz musiqa o'quv mashg'ulotlarini olib beradi.

Bundan tashqari asosiy maqsad talabalarning ko'proq nota bilan kuylashga interval va akkordlarni to'g'ri solfedjio qilib kuylash insonlar olib boriladi. Rahbar direjyor darslarda xorga o'rgatiladigan asarlar qaysi bir davrga xosdir. Rahbarning o'zlashtirish xor uchun repertuar tanlash kabi usullari uning mustaqil qobiliyatini oshiradi. Umuman xor asari ustida ishlash olib boriladigan ishlar quyidagilar:

- She'rni rahbar mukammal o'rganish va idrok qilish jarayoni;
- Asarning xorda bordiyu kuylashda badiiy tomondan gavdalantirishi, ya'ni xorga o'rganish jarayoni.
- Asarning konsertdagi ijrosi shularning barchasi birgina pedagogning yelkasiga yuklatilgan katta ma'sulyatlardan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari xor turlarini bir necha boosqichlarini o'taydilar.

1.1. Barkamol avlod tarbiyasi mustaqil vatanimiz ta'lim tizimining bosh vazifasidir.

Mamlakat kelajak istiqboli har tomonlama rivojlangan komil insonlarni tarbiyalab voyaga yetkazishiga bog'liq ekanligi bugungi kunda sir emas. Buni har bir pedagog aniq va ravshan his qilishi zarur.

Xalqni buyuk kelajak va ulug'vor maqsadlar sari birlashtirish, mamlakatimizda yashaydigan millati, tili, dini va e'tiqodidan qat'iy nazar har bir fuqaroning yagona vatan baxti uchun doimo masuliyat sezib yashashoga chorlash

ajdodlarimizning bebaho merosi va an'analarimizga munosib bo'lishga erishish, komil insonlarni tarbiyalash milliy istiqlol g'oyasining bosh maqsadidir.

Shu bilan birga, men milliy istiqlol g'oyasi bugungi tez suratlar bilan o'zgarayotgan tahlkali dunyoda o'zligimizni anglash, bizning kimligimizni, qanday tarix va madaniyatga ega ekanligimizni his etib yashashga, bu boyliklarni asrab avaylab, demokratik qadriyatlar butun jahon taraqqiyoti yutuqlari bilan oziqlantirib, yangi o'sib kelayotgan avlodga yetkazishga xizmat qilmog'I zarur deb bilaman.

Mustaqil O'zbekiston o'z xalqi tanlab olgan yo'l erkin bozor iqtisodiyotiga asoslangan odil jamiyat, kuchli demokratik huquqiy davlat qurish yo'lidan bosqichma -bosqich olg'a bormoqda. Mana shuning uchun xam bugungi kunda biz bu masalaga jiddiy e'tibor bermoqdamiz. Shuning uchun xam bu maqsadga qaratilgan loyihalar jamoatchiligimiz diqqat e'tibori markaziga o'tmoqda. Ta'lim tarbiya sohasi islohoti bugungi eng dolzarb masalaga aylanmoqda. Bugungi kunda oldimizga qo'ygan maqsadlarimizga erishishimiz, yuqori malakali ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liqligini barchamiz anglab yetmoqdamiz.

Payg'amabrimiz hazrat Muhammad Mustafo sallollohu alayhi-vassallamning aytishicha "Vatanni sevmok iymondandir" deytilar. Kimningkim iymoni butun bo'lsa o'z vatanini yovlarga talatib qo'ymaydi. Uni o'z qonidek, o'z jonidek asraydi. Chunki bu zamin tabarrukdir.

O'zbek xalqining necha ming yillik tarbiya uslublari borki bu uslublari sharqona bo'lib, faqtagina o'zbek xalqi emas balki o'rta osiyo va boshqa sharq mamlakatlariga xam xosdir.

Bunday tarbiya uslublari katta hurmat kichikka izzat, jamoat joylarida o'zini tutish odibi, o'zidan kattaning oldiga tushmaslik, taomdan oldin va keyin qo'lni yuvish va hakozo. Xo'sh manashunday an'anaviy tarbiya usullarimizning bugungi kundagi ahvoli qay darajada? Yoshlarimiz tarbiyasida ushbu hizmatlar mujassammi?

Ta'lim va tarbiyaga bog'liq barcha adabiyotlarda milliy tarbiya usullarimiz chetga surib qo'yilgan edi. Asosan sovet turmush tarzi (bu niqob ostida ruslashtirish siyodati yotar edi) targ'ib qilinar, bunday adabiyotlarni yaratuvchi mualliflardan xam shu talab qilinar, ya'ni senzura nazoratida edi. Xalqimiz necha o'n yilliklar davomida manashu ruhda yozilgan badiiy adabiyotlarni o'qidilar, ishlab chiqilgan filmlarni tomosha qildilar, radio eshittirish va television ko'rsatuvlarni ko'rdilar. Natijada sharqona axloq-odobga zid ravishda yoshlarga singdirib kelindi. Oqibatda yoshlar o'rtasida o'zidan kattalarni, hatto ota-onasini xam "sen"lab gapiradigan, o'zidan kattalarni hurmat qilmaydigan, o'zgalardan hayo qilmaydigan darajaga borib yetdilar. "O'zbekfilm" mahsulotlari xam shu ruh bilan sug'orilgan bo'lib, avval rus tilida ishlanar, senzura nazoratidan o'tgandan so'ng milliy tilimizga tarjima qilinar edi.

Endilikda yaratiladigan asarlar qanday turda yoki janrda bo'lishidan qat'iy nazar shu yurti, unda yashab, tarixda yorqin iz qoldirgan ajdodlarimizni, mamlakatimiz obro'-e'tiborini, san'ati va madaniyatini, sporti shuhratini tarannum qilishga qaratilmog'I maqsadga muvofiqdir. Zero bunday ruhda yaratilgan asarlar u qanday turda yoki janrda bo'lmasin yoshlarda o'z vataniga nisbatan hurmat va ehtirom ruhini yaratadi. Bu bilan biz ko'zlagan maqsadimiz bo'lgan har tomonlama yetuk va barkamol insonni tarbiyalay olishimiz mumkin. Haqiqatdan ham tub burilishlarsiz bu vazifani ado etib bo'lmaydi. Buning ushun umumxalqning qarashini tubdan o'zgartirish va yangi jamiyat fuqarolarini tarbiyalab yetishtira borish lozim.

Endilikda xalqimizdan kundan-kun o'zligi va o'z milliy qadriyatlarini tiklab borar ekan, buning uchun tarbiyani bolaning eng kichik yoshidan ya'ni boshidan boshlash maqsadga muvofiqdir. Bolaning eng kichik yoshi go'daklik bo'lib, bu vaqtdagi tarbiya uchun ota-ona ma'suldir. Bundan keyingi davr esa maktabgacha ta'lim tarbiya muassasalarining faoliyat davri hisoblanadi va bolalar eng zarur hayotiy tarbiyani manashu muassasalarda o'rganadi.

1997 yil avgust oyida qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida" gi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida" gi qonunlarning qabul qilinishi xam mana shu

tarixiy zaruriyatdan kelib chiqdi. Ushbu qonunlar ta'lim va tarbiyaning barcha jabxalariga daxldor.

Ma'lumki maktab yoshdagi bolalar tarbiyasi o'zining murakkab jarayon ekanligi bilan xamda bu yoshdagi bolalar tarbiyasida uchraydigan kamchiliklar katta yoshdagi bolalarga qaraganda ko'p ekanligi bilan o'ziga xosdir. Agar maktabgacha tarbiya muassasalari hayoti, faoliyati u yerdagi ta'lim beruvchi pedagog jamoa, bu muassasalarda bolalarning yoshiga ko'ra guruhlarga bo'linidhi ksbi maktabgacha ta'lim muassasalari ish jarayonini tahlil qilsak, qolaversa bu muassasalarning hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitidagi holatini, ularning muammolarini o'rganib chiqsak kichik yoshli bolalar tarbiyasi qay ahvolda ekanligi ravshanlashadi.

Qolaversa ta'lim va tarbiya borasida Respublikamizda, viloyatimizda, shahrimizda shu kungi vaziyat shu kunning talablari maktabgacha tarbiya muassasalarining shu kunda ko'rsatayotgan faoliyati, ularda ishlab turagan pedagog kadrlarning saviyasi, mavjud moddiy texnika bazasi, o'quv va uslubiy materiallar bilan ta'minlanishi va boshqa ko'plab omillar bu masalalar olib borayotgan ta'lim tarbiya ishlarining qay darajada shu kun talablariga javob bera olishini ko'rsatuvchi dalildir.

Vatanparvarlik va insonparvarlik tarbiyasi mamlakatimiz istiqboli, uning yaxlitligi kabi ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi va barqaror bo'lishida roli benihoya kattadir. Shunday ekan tarbiyaning bu turlariga panja orasidan qarab bo'lmaydi. Uni bolaning ilk yoshlaridan boshlab singdirmoq kerak boladi. Buning uchun tarbiyaning qolgan barcha turlarini ham vatanparvarlik va insonparvarlik tarbiyalarini yosh avlodga singdirmoqqa qaratish kerak.

1.2. Yosh avlodni badiiy-estetik ruhda tarbiyalash va bu yo'lda uchrayotgan muammolar.

Barkamol avlodni tarbiyalab yetishtirishda biz foydalanadigan tarbiya turlaridan biri bu estetik tarbiyadir. Estetik tarbiya deganda biz go'zallikni yani atrof muhit go'zalligini anglashni, undan zavqlanish hissini tushunamiz, lekin aslida estetik tarbiya insonni madaniyatli va marifatli bo'lishga undash demakdir.

Estetik tarbiya – bu o'quvchilarni voqelikdagi kishilarning ijtimoiy va mehnat munosabatlaridagi, turmushdagi go'zallikni idrok qilish hamda to'g'ri tushunishga o'rgatishdir.

Nozik didli bo'lish, go'zallikni fahmlay va qadrlay olish, badiiy madaniyatni tushunish, xullas o'z hayotini go'zallik qonunlari asosida ko'ra olish – komil insonning eng zaruriy fazilatidir.

Insonda go'zallikni tushunish birdaniga vujudga kelmaydi, balki u jamiyat va odamlar va atrof muhit tasirida shakllanib boradi.

Estetik tarbiya – eng avvalo har bir kishida badiiy hissiyot tuyg'ularini, badiiy didni tarbiyalashdir. Bunday yuksak nafosatlilik aql zakovatdan xoli bo'lmaydi.

Shaxsning barkamol avlod bo'lib yatishishida bu ikki tomon bir birini to'ldiradi. Chinakam san'at asarida hissiyot chuqur g'oyaviy mazmun bilan birikib ketadi. Bu asarni yaratuvchi ijodkorning aqliy faoliyati estetik hissiyotalri bilan baravar ishtirok etadi.

Ilmiy dunyoqarashga asoslangan nafosat, did, his tuyg'ular va ko'nikmalarning o'sib borishi jarayonida insonning o'zi xam ma'naviy boyib, oliyjanob bo'lib boradi. Didsizlik kishining voqelikka bo'lgan ijobiy munosabatini buzib yuboradi, natijada u nafosatga loqayd qaray boshlaydi.

Nafosat tarbiyasi bugungi kunda shuning uchun xam muhumki, did farosatlilik mehnatda, ishlab chiqarishda, kundalik amaliy faoliyatda har bir inson uchun hayotiy ehtiyojga aylanib qolgan. Did farosat har bir insonning hatti harakatida, kiyinishida, yurish-turishida, kishilarga bo'lgan munosabatida yaqqol ko'rinadi.

Ba'zan hayotga didi past, ma'naviy qashshoq kishilarni uchratamiz. Bunday kishilar aqlan, axloqan va ruhan zaifligini yashirish uchun soxta hatti harakatlar qiladilar, o'zlariga yarashmaydigan ishlar qiladilar, didsiz kiyinadilar, ma'no-matrasiz shovqun-surondan iborat ashulalarni eshitadila. Bunday kishilarni kuzatar ekanmiz, ularning mehnat gashtini surmagan, hayot tashvishlariga beparvo ekanligiga guvoh bo'lamiz.

Donolardan biri “Go’zallik ahloq-odobning tug’ishgan singlisidir” degan edi. Darhaqiqat bu juda to’g’ri tarifdir. Odatda bu ikki xil tarbiya o’zaro chambarchas bog’liqdir, chunki nafosat tarbiyasining natijasi ahloq-odobda, chiroyli hatti harakatda ko’rinadi.

Nafosat tarbiyasi adabiyot, tasviriyy san’at va san’atning boshqa turlari orqali amalgam oshiriladi. Bolalikda nafosat tarbiyasi to’g’ri yo’lga qo’yilgan bo’lsa inson adabiyot va san’at asarlarining tub mohiyatini anglashga qodir bo’ladi.

Masalan: Estetik didi xali to’laqonli shakllanmagan oddiy rassom asari bilan buyuk rassomlarning shox asarlari o’rtasidagi tafovutni anglashga qodir emaslar.

II. Bob. Oquvchilarni milliy musiqa merosimiz tarixiga oid ma’lumotlar bilan tanishtirishning o’ziga hos ahamiyati.

Biz barpo etayotgan demokratik huquqiy davlat xalqimizning manaviy ruhiy dunyosini iloji boricha hisobga olib ish yuritmoq’I lozim.

Yuksak ma’naviylik va ijtimoiy adolatni nozik his etish, ma’rifatli va ma’lumotli bo’lishga intilish xalqimizga xos xususiyatdir. Bu xususiyatlar ko’p jihatdan sharq falsafasi va islom falsafasi ta’sirida shakllangan bo’lib, ularni rivojlantirishga o’zbek xalqi bebaho hissa qo’shganligini xamma etirof etadi. O’tmish davrida o’z davlatchiligimizni rivojlantirishda madaniyatimiz sarchashmalariga, xali chuqur o’rganilmagan madaniy merosimizga murojaat qilish, bag’oyat boy tarixiy o’tmishimizda mavjud bo’lgan barcha ezguliklarni yuzaga chiqarib uni rivojlantirish borasida keng imkoniyatlar ochildi.

Buyuk ajdodlarimiz bo’lmish alloma va mutafakkirlar, olimlar, go’zallik va ilm ijodkorlarining biz uchun yangi bo’lgan nomlari xamda asarlarini milliy manaviyatimiz xazinasiga qaytarish muqaddas vazifadir.

Manaviyatni mafkuraviy aqidalardan xalos qilib, milliy o’zligini anglashni tiklash, hur fikrlilik, milliy mafkurani shakllantirish xamda rivojlantirish uchun keng yo’l ochib oldik. Endigi asosiy vazifa fuqarolarimizning anashu bilimlar bilan boyib, ma’naviy jihatdan yuksalishiga, o’z hayotlarini o’zgartira olishiga bo’lgan ishonchni tiklashdan iborat.

“Millatimizning manaviy-axloqiy va madaniy yutuqlarini tiklash, saqlab qolish, mustahkamlash va rivojlantirish to’g’risida bundan buyon xam tinmay g’amxo’rlik qilamiz. Bu g’amxo’rlik xalqimizning madaniy o’ziga xosligi, serqirra bo’lishining kafolati bo’lib xizmat qiladi”

O’zbek milliy musiqa san’ati shorolar tuzumi davrida jahonning ko’plab mamlakatlari sahnalarida ijro etilib, o’sha xalqlarda millatimiz, uning madaniyati, tili va udumlari, milliy kiyimlarimiz to’g’risida tasavvur uyg’otib keldi. Bunga Mukarrama Turg’unboyeva nomli “Bahor” ansambli, Q.Otaniyozov nomli “Lazgi” ansambli, B.Zokirov nomli “Yalla” ansambllari bundan tashqari boshqa hofizlarning Rossiya, Yevropa va Arab mamlakatlari, Xitoy va Yaponiya safarlari milliy musiqa san’atimizni targ’ib qilish maqsadida tashkil qilingan edi. Bu an’ana mustaqillik davrimizda xam davom etmoqda. Jumladan N.Abdullayeva, M.Yo’lchiyeva, R.Komilov, O. Nazarbekov, G.Mamazoitova, “O’zbekim yoshlari” va turli folklor etnografik o’z ansambllari bilan boshqa chet davlatlariga qilgan gastrol safarlari misol bo’la oladi. Ularning chiqishlari xamma joylarda tinglovchilarning g’oyat hurmat va ehtiromiga sazavor bo’ldi.

Ayniqsa M.Yo’lchiyevaning gastrol safarlari milliy qo’shiqchilik san’atimizning chet mamlakatlari targ’ibot qilishi ishida alohida taqsinga sazovor bo’ldi. U nafaqat o’zining qo’shiqchilik san’ati bilan balki milliy kiyinishi, sharqona odobi va o’zini tutishi bilan xam chet mamlakatlar tomoshobinlari olqishiga sazovor bo’ldi.

O’tgan asrda milliy musiqa san’atimiz xazinasiga akademik uslub va bu uslubning eng murakkab janrlari bo’lmish opera, balet, simfonik asarlar, kamer asarlar, romanslar kabi milliy musiqamiz tarixida ilgari uchramagan yo’nalishlar kirib keldikim bu o’z navbatida milliy musiqa madaniyatimiz obro’ etiborining jahon xalqlari orasida oshib borishiga sazovor bo’ldi. Jaxon kompozitorlari Motsart, Betxoven, Verdi kabi yevropaning ilg’or kompozitorlari yaratgan operalardan andoza olim M.Ashrafiy, T.Sodiqov, S.Yudakov, I.Hamroyev va boshqalar o’zbek operasining tamal toshini qo’yidilar.

Xalq xavaskorlik to'garaklarining vujudga kelishi va ularda qo'shiq xamda raqs xarakatlari bilan ijro etiladigan musiqali drama asarlarining qo'yilishi dastlab yurtimizda so'ngra shular asosida opera va balet san'atining milliy musiqa madaniyatimizga kirib kelishiga sabab bo'ldi. Bu esa milliy musiqa san'atimizning rivojlanishini yanada tezlatishi va yuksalishiga sabab bo'ladi. Alohida madaniyatlar bo'lmagan bo'lishi mumkin emas. Bir- birini boyitish va o'zaro tasir ko'rsatish jaxon xalqlarining madaniyatining rivojlanishidagi ob'yektiv tarixiy jarayonlardir.

Xozirgi zamon o'zbek musiqa madaniyatiga Estrada janri jadallik bilan taraqqiy etmoqda. Bu jaxon xalqlari musiqa madaniyatining milliy musiqa madaniyatimizga bo'lga tasirini kuchaytirib yuboradi. Endilikda yoshlarimiz turli zamonaviy Estrada cholg'u sozlari, ovoz kuchaytiradigan uskunalaridan Estrada ijrochiligida foydalanmoqdalar. Bundan tashqari yoshlarimiz turli millat kuylari va serial filmlar, multfilmlar yozilgan video, audio kasetalar va boshqa turdagi disklarni istalgan savdo shaxobchalaridan sotib olish va o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bunday qulayliklar xalqaro madaniy aloqaning yorqin timsolidir. Yoshlar bo'sh vaqtlarinin mazmunli o'tkazishi uchun zamonaviy texnika yangiliklari xam munosib xissa qo'shmoqda. Bu juda yaxshi albatta lekin manashunday xaqiqiy san'at asarlari bilan birga g'oyaviy jihatdan milliy mafkuramizga yod bo'lgan axloqiy jihatdan xalqimiz manaviyatiga salbiy tasir etuvchi jaholatni, vaxshiylikni, boylik orqasidan quvish kabi g'ayri insoniy g'oyalarni targ'ib qiluvshi, ibo-andisha kabi chin axloqiy xissiyotlarga zid bo'lgan ko'rinishlar, rasmlar va boshqalar xam mamlakatimiz bozorlariga kirib keldi. Axborot vositalari jamoat tashkilotlari xamda madaniy oqartiruvchi vositalari muassasalarining bevosita va beg'araz yordami zarur bo'ldi. Yosh avlodning jismoniy va mehnat tarbiyalari masalasida shuningdek ularning g'oyaviy mafkuraviy va musiqiy dunyo qarashlarining milliy istiqlol g'oyalari talablari bo'yicha shakllanishi uchun maktabdan tashqari ta'lim dargohlari o'rtasida o'zaro aloqani mustahkamlash zarur.

2.1. Bolalar bo'sh vaqtlari va ularni mazmunli tashkil etishning tarbiyaviy ahamiyati .

Sinfdan tashqari talim tarbiya ishlari deganda maktabgacha tarbiya muassasalari umumtalim maktablari maxsus o'quv dargohlari talim jarayoni xisoblangan dars va mashg'ulotlardan tashqari shu o'quv dargohida olib borgan talim ishlari majmuasi to'g'arak mashg'ulotlari o'quv dargohlarida o'tkaziladigan turli tadbirlar tushuniladi. Ijtimoiy rivojlanishning xozirgi bosqichida tarbiya muhum ekanligi ko'rinib qoldi. Bu masala xozirgi zamonda ikkita bosh masala bilan deyarlik tik bog'liq bo'lib mazkur xazifalar jamiyatimizning moddiy texnika bazasini mustahkamlash va insonlar o'rtasida yangicha ijtimoiy munosabatlarni targ'ib qilishdir. Estetikani chinakam tushunadigan kishilarning kamol topishi uchun estetik terbiyaga boshqacha yondashish zarur. U chinakam go'zallikka muhabbatni shakllantirishi, bemanilikka va boshqa turli salbiy holatlarga nisbatan nafrat uyg'otishi, go'zallik yaratish ko'nikamsini san'at va hayotdagi hunukliklarga qarshi kurashish iqtidorini tarbiyalashi lozim. Mustaqilligimizning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining o'ziga xos yo'lini tanlashi va kadrlar tayyorlash tuzilmasi va mazmunini qayta tashkil etishni zarur qilib qo'ydi. Biz esa bu ishlarni muvaffaqiyatli uddaladik. Mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimi joriy qilindi. Prezidentimiz 2014 yilni "sog'lom bola" yili deb e'lon qilishni xam hukumatimizning yoshlar tarbiyasiga e'tibor berayotganligi, ular uchun kerakli sharoit yaratishga harakat qilayotganligi yaqqol misol bo'la oladi. Zero yoshlarning zamon talablari ota- ona xamda pedagog murabbiylar oldida turgan muhum vazifalardan biridir.

Dars ila tarbiya orasida biroz farq bo'lsada ikkisi bir biridan ajralmaydurg'on birining vujudi biriga boylong'on jon ila tan kabidir.

A.Avloniy

Tarbiya ishida o'z o'zini takomillashtirish jarayoniga katta etibor va o'rin berilmog'i lozim. Insoniyat faqat mustaqil o'rganish tufayligina taraqqiy etgan.

G.Spinser

Odam bolalikdan yaxshilik va go'zallik kurtaklarisiz hayotga qadam qo'ymasligi kerak. Avlodlarni xam yaxshilik kurtaklarisiz xayotga yo'llab bo'lmaydi.

F.Dostoyevskiy

Ta'limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi yorqin shaxsning shakllanishi olib keladi. O'zining qadrini anglaydigan, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalash imkoniga ega bo'lamiz.

I.A.Karimov

Yuqorida bildirilgan fikr va mulohazalardan bolarning fanlar yoki sohalar bo'yicha qiziqishi ortib borishi ko'proq shu bilan shu soha bo'yicha ta'lim beruvchi ustozlarning mashg'ulotlariga qatnashishiga undan chetda qolib ketmasliklariga erishishimiz lozim. Maktabgacha tarbiya muassasalari umumtalim maktablaridda shuningdek undan yuqori o'quv dargohlarida olib boriladigan fan va to'garaklarning tasviriy san'at, adabiyot va musiqa fanlari misol bo'la oladi.

Musiqa san'atining xor ijrochiligi janri bollarga ko'proq targ'ib qilinishi, xor ijrochiligining kelib chiqishi tarixi, uning jaxon musiqa madaniyatida tutgan o'rni, mashxur xor jamoalar xor ijrochiligining boshqa sirlarining xor ijrochiligi to'garagiga yozilishiga va sidqi dildan to'garak mashg'ulotlariga qatnashishiga sabab bo'lsa bu ishda asosiy rolni pedagoglarning metodik mahoratlari o'ynasada o'quv muassasalaridagi mavjud sharoitlar va boshqa o'quv qurollari iliq ishchan muhit xam zarurdir. Aks xolda to'garak mashg'ulotlari kutilgan natijani bermasligi mumkin. Xuddi shuningdek o'quv dargohlarida o'tkaziladigan bayram tadbirlari va boshqa tadbirlar xam bolalar va yoshlarning g'oyaviy tarbiyalarini shakllantirishi mumkin.

Yosh avlod bo'sh vaqtlarining mazmunli o'tishida maktabdan tashqari tarbiya muassasalarining xam roli kattadir. shulardan biri taetr san'ati bo'lib unga musiqali drama teatri, kinoteatr va qo'g'irchoq teatrlari kabi turlari mavjud. Teatr san'at turidir. U xalq hayoti va uning milliy tarixi, madaniyati, urf odati, an'ana va marosimlari bilan bevosita chambarchas bog'liq bo'ladi. Teatrda aktyorlar jamoasi, musiqachilar jamoasi, rassom va texnik xodimlar ish olib boradi. Teatr sintetik

san'at turi bo'lib adabiyot, musiqa, drammaturgiya, raqs, qo'shiqchilik, tasviriy san'at san'atining ajrmas qismi bo'lib qurilgandir. Teatr san'atining o'ziga xos estetik kuchi xam anashunda. Tomoshabinlarda ishonch xosil qilishning alohida imkoniyatga ega ekanligidir. Shuni aytish lozimki mamlakatimizda teatr san'atining rivojlanishiga Yetim Bobojonov, Muxriddin Qori Yoqubov, Tamaraxonim, Cho'lpon, Abdulla Avloniy, Fitrat, Shukur Burxonov, Lutfxonim Sarimsoqova va boshqalarning musiqali drama va opera aktyorlarida Ergash Yo'ldoshev, Saodat Qabulova va boshqalarning xizmati katta. Gap kelganda shuni aytish lozimki mamlakatimizda bolalar uchun qo'g'irchoqlar, o'yinchoqlar, bolalar cholg'u sozlari ishlab chiqaradigan biror fabrika yo'q. shu sababli bolalar o'ynaydigan o'yinchoqlarda milliy ruhiyatimiz sezilmaydi. Ularning ishlarini yaxshilash, repertuarini kuchaytirish, xar bir bolani bir yilda xech bo'lmaganda 3-4 marta spektakllarni ko'rishlariga erishtirishimiz lozim, chunki bolalar qalbi murg'ak bo'lib, ular bolalikda olgan tasurotlar bir umr xotirasidan o'chmaydi.

2.2. Maktabdan tashqari musiqa mashg'ulotlari bolalar ta'limi va tarbiyasida tutgan o'rni va tajriba sinov ishlari.

Mamlakatimiz kelajagi har tomonlama rivojlangan komil insonlarni tarbiyalab voyaga yetkazishga bog'liq yekanligi hammamizga bog'liq. Buni har bir pedagog aniq va ravshan his qilishi zarur. Xalqni buyuk kelajak va ulug'vor maqsadlar sari birlashtirish mamlakatimizda yashaydigan millati, tili va dinidan qat'iy nazar, har bir fuqoroning yagona vatan baxt saodati uchun doimo ma'suliyat sezib yashashga chorlash, ajdodlarimizning bebaho merosi millat qadiryat va an'analarimizga munosib bo'lishiga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash ularni yara tuvchnlik ishlariga da'vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoyilikni hayot me'zoniga aylantirish - milliy istiqlol (g'oyasi) mafkurasining bosh maqsadidir. Shu bilan birga men milliy istiqlol g'oyasi bugungi tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan taxlikali dunyoda o'zligimizni anglash bizning kimligimizni qanday buyuk ajdodlarimizning merosiga, necha ming yillik tarrix, betakror madaniyat va

qadriyatlarga ega ekanligimizni his etib yashashga bu boyliklarni asrab avaylab, demokratik qadriyatlar butun jahon taraqqiyoti yutuqlari bilan oziqlantirib yangi o'sib kelayotgan avlodga yetkazishga xizmat qilmog'i zarur deb bilaman.

I.A. Karimov.

Mustaqil O'zbekiston o'z xalqi tanlab olgan yo'l ochiq bozor iqtisodiyotiga asoslangan odil jamiyat, kuchli demokratik xuquqiy davlat qurish yo'lidan bormoqda. Biz barpo etayotgan davlat avvalo umumjaxon sivilizatsiyasiga davlat qurilishi sohasida taraqqiy etgan boshqa xalqlar erishgan jarayonlarga va o'zimizga xos an'analarga, qadriyatlarga asoslanmoqda mana shuning uchun bugun biz bu masalalarga jiddiy e'tibor bermoqdamiz. Bu maqsadga qaratilgan loyihalar jamoatchiligimiz diqqat e'tiborida turibdi.

Ta'lim- tarbiya sohasi islohati bugungi kunning eng dolzarb , ertangi taqditrimizni hal qiluvchi muammosiga aylanmoqda. Bugungi kunimizda oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarimizga ezgu niyatlarimizga erishishimiz jamiyatimizning yangigilanishi, hayotimizdning taraqqiyoti va istiqbol, amalga oshirilayotgan islohatlarimiz, rejalarimizning samarali taqdiri- bularning barchasi avvalom – bor zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan bog'liqdir barchamizga ayyon. Shu bilan birga yana bir haqiqat faqatgina chinakkam ma'rifatli odam inson qadrini, milliy qadriyatlarini, o'zligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahonda o'ziga munosib egallashi uchun fidoyilik bilan kurashishi keraklashini anglaydi.

Sir emaski har qaysi davlat, har qaysi millat nafaqat er osti va usti tabiiy boyliklari, harbiy qudrati va ishlab – chiqarish salohiyati bilan balqi o'zining yukchak ma'naviyati bilan kuchlidir. Bunday boylikning ahamiyatini anglash uchun Chor Rassiyaning Turkmanistondagi Ginerall Gubernatori M. Skobilevning quyidagi so'zlari mazmunini anglash kifoya “ Millatni yo'q qilish uchun uni qirish shart emas uning madaniyatini, san'atini, tilini va ananalarini yo'q qilsang

bas, tez orada o'zi tanazzulga uchraydi". Bunda yovuz qarashlarga qo'shimcha izoh berishga xojat yo'q, lekin undan kerakli xulosalar chiqarish uchun bugun hali kech emas.

Qadimdan inoq- ahil bo'lgan, to'y marakasi, urf odatlari, ananalari deyarli bir xil bo'lgan, qiz olib, qiz berish quda anda bo'lgan o'zbek tojik, qozoq qirg'iz va turkman halqlarini bo'lib tashlashdan kerak bo'lsa, ular o'rtasiga nizo urug'i sepishdan ko'zlangan maqsad zamirida ham yuqorida aytganimizdek shovunizm "Millatchilik" buzg'unchi- g'oyasi yotadi. Lekin hali ham tinch va farovon hayotimizning ko'zlamasdan o'zlarining g'arazli maqsadlariga yetish umidida atrofimizda yurgan qora shaxslar mavjud. Andijon shahrida sodir etilgan portlash va terror harakatlari g'aliz niyatli kishilar yurtimizda hali ham borligini ko'rsatdiki bu voqyealar bo'lganda chegaramiz dahilsizligiga hych qanday havf bo'lmagan edi. O'tish davrining iqtisodiy qiyinchiliklari sababli xalqimiz turmush tarzi qiyinlashgan bir paytda unga dalda berish o'rniga qora ishlarni qilayotganlar o'z yurtiga, o'z halqiga, o'z ota onasiga, qarindoshlariga qurol o'qtalغان g'alamizlar ham shu el farzandlari edi-ku!

Bunday kuchlarga qarshi qanchadan qancha yurtimizning sodiq o'g'lonlari jon kechib, yurt osoyishtaligini saqlab qolishga erishdi. Yoshlar onggiga go'daklik davridan boshlab o'z vataniga muhabbat, ona tuprog'iga sadoqat ruhini singdirib shuning uchun ham zarurdir. Buning uchun tarbiyaning barcha turlari va jabhalarini mana shu ishga ya'ni vatanparvarlik tarbiyasining mustahkamlash ishiga qaratishimiz zarur:

1. Aqliy tarbiya sohasida yoshlarga bilim berishda har bir fan o'qituvchisi o'zi o'qitadigan fanga bog'lab, vatanparvarlik ruhini singdirmog'i lozim. Masalan: o'qituvchi matematika fanidan dars o'tganda halqimiz orasida yetishib chiqqan riyoziyat olimlari bo'lmish Muso al- Xorazmiy (708-850), Axmad al- Farg'oni (790-865), Abu Nasir al-Farobiy (873-930), Abu Ali Ibn Sino (930-1037), Mirzo Ulug'bek (1394-1440), Qozizoda Rumiy (1360-1437), Ali Qushchi (1403-1474) va boshqalarning matematika, fizika va astronomiya fanlariga qo'shgan hissalar, yozgan milliy nazariy risolalari va dunyo ilm fanining taraqqiyotida ularning

tutgan o'rinlari to'g'risida tushuncha berishi ilmiy chohadagi ularning izlanishlari mohiyati, yaratgan asarlari va kashfiyotlari to'g'risida o'quvchilarga batafsil tushuncha berishlari o'quvchilarga o'z ajdodlari qadriyatlariga bo'lgan mehri muhabbat hurmati ruhini uyg'otadi. Bundan tashqari masalalar yechish jarayonida uning shartlarini o'quvchilar turar joylari, qishloqlari, shaharlari misolida ko'rsatish bolalarning o'z oilasiga bo'lgan munosabatini yaxshilashi mumkin. Yuqorida keltirilgan masalalar matematika fani misolida bo'lsada, barcha fanlar o'qitishda asosiy diqqat markazida turadigan markazidir. Payg'ambarimiz Muhammad Mustafo Sallallohi- alayhu vassallomning aytishicha "Vataninni sevmok iymondandir" kimning imkoni butun bo'lsa o'z vatanini yovlarga talatib qo'ymaydi, uni qoni, jonidek asraydi, ulug'laydi. Chunki bu zamin tabarrukdir. O'zbek xalqining necha ming yillik tarbiya usullari borki bu uslublar sharqona bo'lib, faqatgina o'zbeku halqiga emas, balki O'rta Osiyo boshqa sharq mamlakatlariga ham xosdir. Ushbu tarbiya uslublari, kattaga hurmat, kichikka izzat, jamoat joylarida o'zini tutishi, taomga kattalardan oldine qo'l uzatmaslik mehmondo'stlik mulozamatlari va xk.

Xo'sh mana shundek an'anaviy tarbiyaviy usullarimizning bugungi kundagi ahvoli qay darajada? Yoshlarimizning tarbiyasida ushbu xislatlar mujassammi? Ahvol ko'ngildagidek emas. Buning sabablarini sobiq tizim davri tarbiya uslublaridan qidirmoqlik lozim. Ya'ni u davrda tarbiyaning barcha prinsiplari mafkuralashtirilgan bo'lib, asosan hukmron halq manfaatini ko'zlagan holda amalga oshirilar edi.

Ta'lim va tarbiyaga bog'liq barcha adabiyotlarda milliy tarbiya usullarimiz chetga surib qo'yilgan edi. Asosan sovet turmush tarzi targ'ib qilinar bu adabiyotlarni yaratuvchi mualliflardan hvam shu talab qilinar ya'ni sezura nazoratida edi. Xalqimiz necha o'nyilliklar davomida mana shunday ruhda yozilgan adabiyotlarni o'qidilar, radio eshittiruv va ko'rsatuvlarni ko'rdilar natijada sharqano odobga zid ravishda ko'pgina yoshlar o'zidan kattalarni hatto ota onasini ham "Sen" lab gapiradigan, o'zgalardan hayo qilmaydigan yotgan to'shagida ovqatlanadigan bo'ladi. Mamlakatimizning yagona kino studiyasi

bo'lgan "O'zbektelefilm" ishlab chiqargan mahsulotlar ham mana shunday ruh bilan suhoriladi. Bundan tashqari musiqa o'quv yurtlarida o'rganiladigan musiqa asarlar ham asosan Yevropa va Rus musiqa madaniyatiga xos edi. Milliy musiqamizga esa past nazar bilan qaralar edi. O'sha davrda ijod qilgan barcha ijodkorlar u qaysi sohada bo'lmasin, goh shoir, goh yozuvchi, goh rassom, goh kompozitor ushbu mafkura sadoqat ko'rsatishga majbur edi. Ne ajabki bu davr talab edi.

Endilikda yaratilgan asarlar va yaratilayotganlari ham shu yurtni, unda yashab tariximizda o'zlarining izlarini qoldirgan buyuk ajdodlarimiz nomini mamlakatimiz ravnaq topishi uchun kuydirayotgan va elga tanilgan turli soha fidoyi vakillarini, halqimiz madaniyati san'ati adabiyti, fani sporti shuxratini tarannum qilishga qaratilmog'i maqsadga muvofiqdir. Zero, bunday ruhda yaratilgan asarlar u qanday turda bo'lmasin, yoshlarda o'z vataniga, xalqiga buyuk qariyatlarimizga nisbatan xurmat va ehtirom ruhini uyg'otadi va bu bilan biz ko'zlagan maqsadimiz bo'lmish har tomonlama yetuk, milliy istiqlol g'oyalarimizga sodiq bo'lgan komil insonni tarbiyalay olishimiz mumkin. Shunday ekan maktabgacha tarbiya muassasalarida kichik yoshdagi bolalarga berilayotgan barcha tarbiya turlarini ham milliy mafkuraga shuningdek vatanparvarlik tarbiyasini singdirish ishiga qaratishimiz lozim.

Chunki tarbiya ishida kechikish yaramaydi, ya'ni kelajakda yurtimiz shanini uning obro' e'tiborini himoya qiladigan oriyatli insonlarni tarbiyalab yetishtirishi bosh maqsadimiz ekan, bu ishni bolaning eng kichik yoshidan boshlash zarur.

Biz II bobning 2 paragrafini "Maktabdan tashqari musiqa mashg'ulotlari bolalar ta'limi va tarbiyasida tutgan o'rni va tajriba sinov ishlari." – deb kichik sarlovha qo'ydik. Xo'sh bu mashg'ulotda tarbiyaviy jarayon qanday kechadi? Qanday qilib musiqa mashg'ulotida va to'garak ishlarida bolalarga aqliy, axloqiy, mehnat estetik, jismoniy va vatanparvarlik tarbiyasini berish mumkin?

Bu savollarga quyidagicha javob berish mumkin. Avvalo shuni aytish lozimki, yuqorida biz aytib o'tkanimizdek musiqiy tarbiya, estetik tarbiyaning

ajralmas qismi bo'lsada barcha tarbiya turlariga dahildor. Agar bolalarga bilim berish, o'rgatish, anglatish aqliy tajriba ekanligini hisobga olish musiqiy tarbiyada bu elementlarning barchasi mavjud chunki musiqiy tarbiya faqatgina amaliyot, ya'ni qo'shiq kuylash, cholg'u chalish, raqs harakatlari emas, balki uning o'ziga xos nazariy tamoyillari ham mavjudki, bu bolalar aqli kamoloti uchun xizmat qiladi, dunyoqarashini kengaytiradi, fikrlashga tafakkur qilishga undaydi. Bu borada musiqiy ta'limning murakkabligi matematikadan kam emas.

Ahloqiy tarbiya borasida esa musiqa tarbiyachi deyish mumkin chunki bolalar tinglaydigan barcha musiqa asarlarida ma'lum bir mazmun, ma'no va ma'lum miqdorda ahloqiy normalar mujassamlashgan bo'lib, bolalar tinglagan musiqalarning mazmunini tushuntirish chog'ida musiqa rahbari unga ahamiyat beradi va musiqa rahbari albatta musiqa mazmunidagi ahloqiy fikrlar to'g'risida tushunchalar beradi. Har bir olib borilayotgan tadbirlar zahirida ahloqiy fikrlar, g'oyalar yotadi. Masalan: "Istiqlol g'unchalari" tadbiri mazmunida vatanimiz yagona ekanligi uni ko'z qorachig'idek asrash nuqtai nazaridan haqiqatdan ham bola tarbiyasida alohida o'rin egallaydi. "Yangi avlod" ko'rik tanlovi ham ahloqiy tarbiyaga ham ijodiy faolligini oshirishiga dahldordir.

Shunga o'xshash tadbirlarning barchasi bolalarning jismioniy kamolotini ko'zlab amalga oshiriladi. Qolgan tarbiya turlari bo'lmish vatanparvarlik, boynalminallik tarbiyalar ham "Muhiddin Qoriyoqubov nomli" "O'zbekiston Vatanim manim", "Kelajak ovozi", "Zulifiya", "Yangi avlod", "Kamalak yulduzlari" tadbirlari ham bolalarni ijodkorlikka, estetik tarbiya olishga, ruhiy olamini boyitishda va idrokini shakllantirishda muhim tarbiya manbai hisoblanishini o'zimizning tajriba sinov ishlarimizda kuzatdik. Bolalar davlat madhchisi, yurt ulug'lari, istiqlolimiz, mustaqilligimiz, xalqimiz, tabiatimiz, ota-onalar, ustozlar, onalar zamin, gullar, mevalar to'g'risida kuylaydilar yoki shu mazmundagi yirik formal musiqiy asarlarni tinglaydilar. Ularni mazmunini tushunish orqali yuqorida ko'rsatilgan tarbiya turlarini o'zlarida mujassamlaydilar.

Ana shularni hisobga olgan holda biz o'zimiz amaliyot o'tayotgan № 9 maktabda mavzumiz bo'yicha tajriba sinov ishlarini olib borib, 21 mart "Navro'z", 8- mart "Xalqaro- xotin qizlar kuni", 1 May kuni "Ko'hna zamin ohanglari" nomli tadbirlarni o'tkazdik. Bundan tashqari shahrimizda o'tkazilgan "Muhiddin Qoriyoqubov nomli", "Istiqlol g'unchalari", "Yagonasan mustaqil vatan", "Yangi avlod" nomli ko'rik tanlovlariga o'zim tajriba olib borgan sinfim bilan tashrif qildik. Tadbirlarda qatnashishdan ko'zlangan asosiy maqsadimiz hozirgi kundagi globallashuv jarayoni avj olib borayotgan bir sharoitda bizning mentalitetimizga yot bo'lgan odob-ahloq chegarasidan chiqqan, saviyasi past horij estradasi oqimining oldini olish va yoshlarimizni halq og'zaki ijodiga asoslangan o'yin, raqs, aytishuv ko'rinishida milliy me'rosimizdan bahramand etish va ularning qiziqishlarini yanada orttirish edi. Ana shunday tadbirlar brcha sinf o'quvchilarida ham milliy merosimizga nisbatan katta qiziqish uyg'otdi. Bizning asl maqsadimiz ham shu edi.

Musiqqa san'ati hamma zamonlarda ham qudratli tarbiya vositasi bo'lib qolganligi va bugungi kunda ham uning tarbiyaviy ta'sir imkoniyatlari tobora ortib borayotganligi ayni haqiqatdir. Yurtboshimiz I.Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida ta'kidlaganlaridek, "Musiqaning hayotbaxsh ta'sirini o'z hayotida sezmasdan yashaydigan odamni bizning yurtimizda topish qiyin. Eng muhimi, bugungi kunda musiqa san'ati turlariga qaraganda ko'proq va kuchliroq ta'sir ko'rsatmoqda". Shunday ekan ta'limning barcha bo'g'inlarida, xususan, umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida yosh avlodning musiqa san'tiga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirib ularning milliy qadriyatlarimizga, sa'atga, vatanga, ota-onaga, do'stiga bo'lgan mehr – muhabbatlarini oshiriashda o'zining hissasini aynan manashu musiqa san'ati qoshmoqda deb o'ylayman.

UMUMIY XULOSA

Biz ushbu mavzuni o'rganish va tahlil qilish jarayonida shu narsaga amin bo'ldikki, o'sib kelayotgan yosh avlod madaniyatimiz va ma'naviyatimizni taraqqiyotning intellektual qadryatlarini kelajak jamiyat a'zolarining ongiga etkazadilar. Shu o'rinda yoshlarning ma'naviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalashda maktabdan tashqari o'tkaziladigan tadbirlarning roli alohida ahamiyatga ega. Chunki aynan yoshlarimizning milliy mentalitetimizga xos bo'lgan qadryatlarni saqlab qolishda milliy musiqa san'atining ham o'z o'rnini bor. Bizga malumki o'quv dargohlarida talim ishlarini olib borishda o'qituvchi yetakchi o'rin egallaydi. Chunki u bu ishga masuldir. O'qituvchi va o'quvchi munosabatidan majburiy itoatkorlik o'rnini ongli intizom egallashi juda qiyin kechmoqda. O'qituvchining bosh vazifasi o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini xosil qilishdan iboratligini yaxshi tushunishimiz va unga amalda rioya qilishimiz davr talabidir.

Respublikamiz mustaqilligi elon qilingan sana (1991 yil 31 avgust) xalqimiz xayotidagi ulug'vor voqea xisoblanadi. Endi xalqimizning o'zining boy tarixi, madaniyati, urf-odatlarini o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu voqeadan so'ng ko'p sonli o'qituvchilar jamoalari oldiga vatan ravnaqi uchun xormay xizmat qilish, vatanga fidoiy yoshlarni tarbiyalash vazifasi qo'yildi.

Buyil davlatimiz prezidenti tomonidan "Sog'lom bola" yili deb e'lon qilinishi o'qituvchi kadrlardan nafaqat kasbiy bilimlarni balki har tomonlama iqtidor egasi bo'lishni talab qilmoqda. Chunki endilikda ular tarbiyalayotgan avlod milliy qadriyatlarimizni yaxshi bilishi, o'z huquqlarini yaxshi bilishi va zamonaviy texnikalardan unumli foydalana olishi zarur. Demak bolalar mustaqil musiqiy faoliyatining ular bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishdagi ahamiyati ko'p jihatga o'qituvchiga bog'liq.

Xulosa qilib aytganimizda yosh avlodni mamlakatimiz milliy istiqlol g'oyalariga sodiq, yurtimiz ravnaqi uchun kurashuvchan, har tomonlama barkamol yetuk avlod qilib tarbiyalash xozirgi zamon pedagoglarining muqaddas burchidir. Bu ishda pedagoglarga, ota-onalarga mahalla kuy, maktabdan tashqari o'quv va

tarbiyaviy muassasalar va boshqalarning yordami xamda bolalar mustaqil faoliyatlari va unga oqilona rahbarlik qilish katta yordam berar ekan.

Prezidentimiz “Manaviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta’lim va maorifni yuksaltirish, milliy uyg’onish g’oyasini ro’yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhum vazifalaridan biri bo’ldi” – deb Oliy Kengashning 1995 yil yig’ilishida qilgan ma’ruzasida nihoyat xaq gapni aytgan edi. Shunday ekan bolalar va yoshlarning bo’sh vaqtlarini mazmunli o’tkazish ularni turli yurtimiz mafkurasiga yod bo’lgan oqimlarni, mafkuralar tasiriga tushib qolmasligi, giyohvandlik kabi jamiyatimiz va mamlakatimiz, ota-ona va mahalla oldidagi huquq va burchlari xamda masuliyatlarini to’g’ri anglashi manaviy va marifiy jihatdan ulg’ayishlari uchun to’g’ri tashkil qilishi zarur ekan.

Bundan tashqari bolalar va yoshlar bo’sh vaqtlarini mazmunli o’tkazishlarida maktabdan tashqari ta’lim-tarbiya maskanlari, musiqa va san’at xamda sport maktablari tashkil qilingan. Klublar, yoshlar uyushmalari, teatrlar, kinoteatrlar va boshqalarning olib borayotgan faoliyati xam katta rol o’ynar ekan. Chunki musiqa va san’at, sport maktablari xamda klublarda bolalar xam ta’lim va tarbiya oladilar va ular oz’lari qiziqqan shu sohalari bo’yicha bilim va malaka egallash bilan mashg’ul bo’lsalar, kinoteatrlar, teatrlarda adabiy dramatik asarlar syujetlari, undagi ijobiy va salbiy qahramonlar, yo’nalishi va yechimi bilan tanishish jarayonida ulardan o’zlariga tegishli xulosalar chiqarib oladilr.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. I.A.Karimov 1995 yil Oliy kengashdagi maruzasi.
1. I.A.Karimov “O‘zbekiston XXI asr bo’sa’gasida” Toshkent. “O‘zbekiston” nashriyoti 1997 yil
2. I.A.Karimov “Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori” Toshkent “Sharq” nashriyoti 1998 yil
3. I.A.Karimov “Barkamol avlod orzusi” Toshkent “Sharq” nashriyoti 1999 yil
4. I.A.Karimov “Milliy istiqlol g‘oyasi. Asosiy tushuncha va tamoyillari” Toshkent “O‘zbekiston” nashriyoti 2000 yil
5. O‘zb. Res. XTB “Umumta’lim mamkablarida musiqa ta’lim-tarbiyasi konsepsiyasi” Toshkent 1995 yil
6. O‘zb. Res. XTB “Axborotnoma” 6-maxsus son. Toshkent “Sharq” nashriyoti 1999 yil
7. Firdavsiy “Shohnoma” Toshkent “Fan” nashriyoti 1993 yil
8. X.To’xtayev “Manaviyatning oydin yo’li” Toshken “Manaviyat va marifat” markazi 1996 yil
9. Mualliflar jamoasi “Amir Temur va Temuriylar davrida madaniyat va san’at (Maqolalar)” Toshkent “Adabiyot va san’at” nashriyoti 1996 yil
10. S.X.Yo’ldosheva “Ozbekistonda musiqa tarbiyasi va ta’limining rivojlanishi” Toshkent “O’qituvchi” nashriyoti 1985 yil
11. A.Xasanov “Musiqa va tarbiya” Toshken “O’qituvchi” nashriyoti 1993 yil
12. X.Xamidov “O‘zbek an’anaviy qo’shiqchilik madaniyati tarixi” Toshkent “O’qituvchi” nashriyoti 1996 yil
13. Mualliflar jamoasi “Pedagogika” Toshkent “O’qituvchi” nashriyoti 2001 yil

14. V.I.Loginova "Maktabgacha tarbiya pedagogikasi" Toshkent "O'qituvchi" nashriyoti 1991 yil
15. H. Nurmatov . Musiqa alifbosi 1-sinf .-T.: G'G'ulom nomli. "Adabiyot va san'at" nashriyoti 2004.
16. H.Nurmatov.N.Norxo'jaev. Musiqa 3-sinf . -T.: G'G'ulom nomli nashriyoti 2008.
17. Jizzax DPI Yoshlar ongiga milliy istiqlol g'oyalarini singdirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning vazifalari (Resp.Ilmiy-amaliy anjumani). - Jizzax 2006.
18. G.Sharipova. Musiqa va uni o'qitish metodikasi. -T.: "Turon" nashriyoti 2003.
19. A.Normatov. Musiqiy ta'limda fanlararo bog'liqlik. Jizzax 2010.
20. A.Normatov. A.Rajabov. O'zbek milliy qo'shiqlari va ularni o'rganish uslublari. Jizzax2011.
21. "Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009-2014 yillarda mo'ljallangan davlat dasturini tayorlash chora-tadbirlari to'grisida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi. - T.:
22. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standard va o'quv dasturi. Musiqa 6-maxsus son. - T.: "Sharq" 1999.
23. Uzluksiz ta'lim tizimida musiqa fanlarini o'qitish masalasi. Respublika ilmiy- amaliy anjumani materiallari. - T.: 2009.
24. T. Ortiqov. Musiqa o'qitish metodikasi.- Namangan 2009.
25. Yosh avlodda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish- asosiy vazifamizdir. Ilmiy- uslubiy seminar materiallari. - Jizzax 2011.
26. Uzluksiz ta'lim sifat va samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy muommolari. Respublika ilmiy konferensiyasi materiallari. - Samarqand 2011.
27. A. Hasanov. Musiqa va tarbiya. –T;- O'qituvchi. – 1993 yil.

28. G.Sharipova. Musiqa o'qitish metodikasi. (ma'ruzalar matni). – TDPU-2000 yil

29. I. Qudratov., N. Tolliboyev. Boshlang'ich sinf musiqa darslarida o'zbek xalq qo'shiqlarini o'rgatish. –T;- Fan, 2007 yil.